Kishining tevarak-atrofda munosabat, bиргалидаги faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladijan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi sifatida tushiniladi.

Inson faolligi “harakat”, “faoliyat”, “xulq” tushunchalari bilan chambarchas boqliq bo'lib, shaxs va uning ongi mas, Shaxs va uning faolligi. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan, eng muqim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. Faollik (lotincha “actus” - harakat, “actus” - faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning qayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriadir. Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan boqliq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyqonish paytlarimizda amalga oshiradigan mavqum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun qam psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroti va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

- A. Tashqi faollik - bu tashharidan va o'z ichki istak-xoxishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladijan faollik.
- B. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik

jarayonlar, (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) qamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinnmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida qayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga etdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak, ichki faollik - o'sha ko'z yoshlarini keltirib chihargan fiziologik jarayonlar, ichki soqinchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta'siri), ko'rib idrok qilgandagi o'zaro bir-birlariga intilishni ta'minlovchi ichki, bir harashda ko'z bilan ilqab bo'lmaydigan emotsiyonal holatlarda namoyon bo'ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvoqi bo'lsak qam, uni ifodalagan rasmni qursak qam, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik qam shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir harashda har bir konkret shaxsga va uning eqtiyojlariga boqliq bo'lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, shaxsning jamiyat bilan bo'ladigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati qisoblanadi.

Alasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi qam. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshhariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshhariladigan, undagi turli-tuman eqtiyojlardan kelib chiqadigan, qamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga haratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga haratilgan o'yin faoliyati, bu - moddiy ne'matlar yaratishga haratilgan meqnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga haratilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko'paytirishga haratilgan sportchining maqorati va shunga o'xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashqul bo'lib turadi.

Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy xarakatlar. har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga - predmetga haratilgani uchun qam, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagи predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga haratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga haratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zaqirasini boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganiga harab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muqit va undagi narsa va qodisalarini o'zgartirishga haratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat - birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u

sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki - aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab, predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishga o'rganib, o'ylaydigan, muloqaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

har qanday sharoitda qam barcha harakatlar, qam ichki-psixologik, qam tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshharilib boradi. har qanday faoliyat tarkibida qam aqliy, qam jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisizq Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zлari, xattoki, tana va qo'l harakatlari juda muqim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mammuniyat qis qilayotganligidan darak beradi. Bir harshda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan, misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan boqbon harakatlari qam aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy xarakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni qam o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

pertseptiv – ya'ni, bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va xodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;

mnemik faoliyat-narsa va xodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi, qamda esda saqlab turilishi bilan boqliq murakkab faoliyat turi;

fikrlash faoliyati - aql, faqm - farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni echishga haratilgan faoliyat;

imajitiv - ("image" -obraz so'zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda qayol va fantaziya vositasida qozir bevosa ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va qayolda tiklashni taqozo etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyat qam tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo'lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y bergen bo'lsa, bunday jarayonni psixologiyada interiorizatsiya deb ataladi, aksincha, aqlida shakllangan qoyalarni bevosa tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi eksteriorizatsiya deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra qam farqlanadi. Masalan, shunday bo'lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, aloqida-alоqida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo'nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o'girilganda, malaka qosil bo'ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni ko'nikmalar deb ataymiz. Ko'nikmalar - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko'nikma va malakalar o'zaro boqliq bo'ladi, shuning uchun, qam o'quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko'nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi. Ikkalasi qam mashqlar va qaytarishlar vositasida mustaqamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo'lsak, uning shakllanish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin:

oddiy namoyish etish yo'li bilan;

tushuntirish yo'li bilan;

ko'rsatish bilan tushuntirishni uyqunlashtirish yo'li bilan.

qayotda ko'nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni engillashtiradi va o'qishda, meqnatda, sport soqasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlaydi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo'lishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu barcha insonlarga xos bo'lgan asosiy faollik turlari bo'yicha tabaqaqlashdir. Bu - muloqot, o'yin, o'qish va meqnat faoliyatlaridir.

Muloqot - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli eqtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga haratilgan eqtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallahsga zamin yaratadi.

O'yin - shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagи murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab etolmaydi.

O'qish faoliyati qam shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Meqnat qilish qam eng tabiiy eqtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga xissa qo'shishdir.

har qanday kasbni egallahash, nafaqat egallahash, balki uni maqorat bilan amalgalashda faoliyatning barcha qonuniylari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallahash uchun qam unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki qam ichki (psixik), qam tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan boqliq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shuqullanishiga majbur qilgan psixologik omillar, sabablar muqim bo'lib, bu faoliyat motivlaridir.

Tayanch so'zlar:

Shaxs strukturasi, Metandivid, interindivid, faollik, Aqliy xarakatlar, pertseptiv, mnemik, imajitiv, ko'nikmalar.

Nazorat savollari

Inson faoliyati haqida umumiylashuv.

Inson va uning psixologik tuzilishi.

Faoliyat va ijtimoiy xulq motivatsiyasi.

Malaka, ko'nikma va odatlar va ularning shakllanishi.

5. O'yin va meqnat faoliyati normalari.

Adabiyotlar:

Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.- T., 1994

Grimak L.P. Rezervo` chelovecheskoy psixiki.- M., 1990

Klimov E.A. Osnovo` psixologii.- M., 1998

Kovalev V. I. Motivo` povedeniya i deyatelnosti. - M., 1988

Nemov R.S. Psixologiya. V 3-x kn.- Kn.1.- M., 1998g.

6- MAVZU. Shaxsning hissiy-irodaviy xususiyatlari

Reja:

1. Xis-tuyg'ular haqida tushuncha.
2. Xis-tuyg'ularni boshdan kechirish shakllari.
3. Xis-tuyg'ularning turlari va ularning shakllantirilishi.
4. Iroda haqida tushuncha.
5. Irodaviy akt (harakat) strukturası.
6. Shaxsning irodaviy fazilatlari va ularni shakllantirish.

Kishi idrok etish, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga qayotdagı u yoki bu narsalarga qanday bo'lmasın munosabat bildiradi. Unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda xis-tuyg'u paydo bo'ladi. Bunday ichki shaxsiy munosabatning manbai faoliyat va munosabat jarayonlari bo'lib, u ana shunday jarayonlarda ro'y beradi, o'zgaradi, barharor tus oladi yoki yo'qoladi (vatanparvarlik, nafratlanish, bar laqzalik mammunlik).

Xis-tuyg'ular – kishining o'z qayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashqul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

Xis-tuyg'uni boshdan kechirishning turli shakllari – emotsiya, affekt, kayfiyat, turli qayajonlanish (stress holati) mavjud. Eqtiros, va niqoyat, tor ma'nodagi sqz bilan aytganda, xis-tuyg'ular – shaxsning emotsiyal soqasini tashkil etadiki, ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turadi, bilishning jonli manba, odamlar o'rtasidagi murakkab va ko'pqirrali munosabatlarning ifodasi bo'lib qisoblanadi.

Xis-tuyg'ular ba'zan har qanday psixik jarayonning faqat yoqimli, yoqimsiz yoki aralash asorati tarzida boshdan kechiriladi. Bu o'rinda ular o'z xolicha anglanilavermaydi, aksincha, narsa va harakatlarning xususiyati tarzida anglaniladi va biz yoqimli kishi, yoqimsiz ta'm, kulgili ifoda, nafis mato, quvnoq sayr va qokazolar deb gapiramiz. Ko'pincha bunday hissiy tus oldingi kuchli kechinmalarning oqibati, o'tmish tajribaning aks-sadosi bo'lib chiqadi. Ba'zan u narsaning kishini qanoatlantirishi yoki qanoatlantirmasligi, uning faoliyati muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz o'tayotganligi belgisi sifatida xizmat qiladi.

Xis-tuyg'ular shaxs eqtiyojlariiga javob beradigan narsalarni aniqlab olishga yordam beradi va ularning qondirilishiga haratilgan faoliyatga omil baxsh etadi. Eqtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmasligi kishida turli xil shaklni kasb etadigan o'ziga xos kechinmalarni qosil qiladi.

Emotsiyalar – “hissiyot” (“emotsiya”) va “xis-tuyg'u” so'zlari ko'pincha sinonimlar sifatida qo'llaniladi. “Emotsiya” so'zini o'zbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruqiy qayajonlanish, ruqiy harakatlanish degan ma'noni anglatadi.

Hissiyot deb, masalan, kishining musiqaviy asarga nisbatan o'rnashib qolgan xususiyati sifatidagi muqabbat tuyg'usining o'zini emas, balki kontsert paytida yaxshi musiqiy asarni eshitayotib, boshidan kechirgan lazzatlanish, zavqlanish holatiga aytildi. Musiqiy asarning yomon ijro etilganini eshitganda qosil bo'ladigan xuddi shunday xis-tuyg'u nafratlanish kabi

salbiy xissiyot sifatida boshdan kechiriladi.

Bu xil holatlarda emotsiyalar ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Ular xatti-harakatlarga, fikr-muloqazalar bildirishga turtki beradigan kuch bo'lib chiqadi, kuch-qayratlarni oshirib yuboradi va stenik deb ataladi. Boshqa bir qollarda emotsiyalar sustligi, loqaydligi bilan ajralib turadi, xis-tuyg'ularning boshdan kechirilishi kishini bo'shashtirib yuboradi va bu qol astenik deb ataladi. (qo'qqanidan oyoqlari qaltirashi, kuchli xis-tuyg'uga berilib, xayolga cho'mib, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolish qollari).

Affektlar (hissiy portlashlar) – kishini tez chulqab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan jarayonlar affektlar deb ataladi. Ular ongning anchagina darajada o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun qayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi. Affektlar birdaniga katta kuch sarf qilinishiga sabab bo'lgani uchun qam qisqa muddatli bo'ladi: ular xis-tuyg'ularning bamisolari birdan lov etib yonib ketishiga, portlashiga, bir zumda qamma yoqni to's-to' polon qilgan shamolga o'xshaydi. Agar oddiy hissiyot faqat ruqiy qayojonlanishini ifoda etsa, u qolda affekt bo'rondir.

Kayfiyatlar - ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiyy hissiy holatini ifoda etadi. Kayfiyat shodu xurramlik yoki qayquli, tetiklik yoki lanjlik, qayajonli yoki ma'yuslik, jiddiy yoki engiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik va qokazo tarzda bo'ladi.

Kayfiyat juda xilma-xil, yaqin va ancha uzoq turuvchi manbalarga ega bo'lishi mumkin. Turmushning butun borishidan, jumladan, ishda, oilada, maktabda munosabatlarning qanday yo'lga qo'yilganligidan, kishining qayot kechirishi yo'lida paydo bo'layotgan har qanaqa ziddiyatlar qay tarzda bartaraf etilishidan qanoat qosil qilishi yoki qanoatlanmaslik kayfiyatlarning asosiy manbalari qisoblanadi. Kishining uzoq vaqt yomon yoki Lanj kayfiyat bilan yurishi uning qayotida biror narsaning ko'ngildagidek emasligini ko'rsatadi.

Kuchli qayajonlanish (stress) holatlari. Psixologik ta'rifga ko'ra affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomliligiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan xis-tuyg'ular boshdan kechirilishining aloqida shakli kuchli qayajonlanish (stress) holati (inglizchada stress – tazyiq ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan)dan, yoqud hissiy zo'riqishdan iboratdir. hissiy zo'riqish xavf-xatar tuqilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan taxlika ostida qolib ketgan vash u kabi vaziyatlarda ro'y beradi.

Asosiy hissiy holatlar va ularning tashqi ifodasi. Xis-tuyg'ularning hissiyotlar, kayfiyatlar, kuchli qayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi choqida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilarga qam ega. Yuzlarning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, oqang, ko'z qorachiqlarining kengayishi va torayishi kabilar shular jumlasiga kiradi.

har biri o'zining psixologik ta'riflari va tashqi ko'rinishlariga ega bo'lган quyidagicha asosiy hissiy holatlarni aloqida ajratib ko'rsatish mumkin. qiziqish, quvonch, qayratlanish, iztirob chekish, qazablanish, nafratlanish, jirkanish, qo'rquv, uyalish va qokazo.

qiziqish – malaka va ko'nikmalarining rivojlanishiga, ta'lim olishga moyillik tuqdiradigan bilimlarni egallahsga yordam beradigan ijobiy hissiy holatdir.

quvonch – xali-veri qondirilishi mumkin bo'lмаган yoki har qolda qondirilishi noaniq bo'lган dolzarb eqtiyojning etarli darajada to'la qondirilgan bo'lishi mumkinligi bilan boqliq ijobiy hissiy holatdir.

Iroda – bu shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni engib o'tishga haratilgan faoliyati va qulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshharishi demakdir.

Iroda – bu shaxs faolligining aloqida shakli, uning qulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo'yilgan maqsad bilan belgilanadigan aloqida turidir.

Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o'z eqtiyojlariga ko'ra o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladigan kishining meqnat faoliyatida paydo bo'ldi.

Iroda o'zaro boqliq ikkita vazifaning – undovchi va tormozlash (to'xtatish) vazifalarini bajarilishini ta'minlaydi va ularda o'zini namoyon qiladi.

Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan ta'minlanadi. harakat oldingi vaziyat (chaqiriqqa nisbatan kishi aylanib haraydi, o'yinda tashlangan to'pni qaytaradi, qo'pol so'zdan qafa bo'ladi va qokazo) bilan boqliq bo'lган paytdagi faollik harakatning ayni o'zida namoyon bo'ladigan ichki holatiga nisbatan sub'ektning o'ziga xos xususiyatini kuchga kiritish harakatini chiharadi (zarur axborotni olishga eqtiyoj sezayotgan kishi o'rtoqini chaqiradi, jaqli chiqqan holatda yonidagilariga qo'pollik qilishga yo'l qo'yadi va qokazo).

Iordaning undovchi vazifasi bilan birgalikda harakat qiluvchi to'xtatish vazifasi faollikning yoqimsiz ko'rinishlarini jilovlashda namoyon bo'ladi. Shaxs o'zining dunyoharashida eng yuksak maqsadlariga javob bermaydigan motivlarning o'yqonishini va harakatlarning bajarilishini to'xtatishga qodirdir. To'xtatish bo'lmasa, qulq-atvorni boshharib bo'lmas edi. Odamlar o'zlarining qilgan ishlari uchun ma'suliyatni kimga yuklashga moyil bo'lishiga harab sezilarli ravishda farqlanadilar. Kishining o'z faoliyati natijalari uchun ma'suliyatni tashqi kuchlarga va sharoitlarga qayd qilib qo'yish, yoki, aksincha ularni shaxsiy kuch-qayratlariga va qobiliyatlariga moyilligini belgilaydigan sifatlar nazoratni lokallashtirish deyiladi (psixologik adabiyotda "nazarat lokusi" degan termin qo'llaniladi, lotinchada lotus – o'rnashgan joy va frantsuzchada controle – tekshirish deyiladi). O'z qulq-atvori va o'z ishlari sabablarini tashqi omillar

(taqdir, holat, tasodif va boshqalar)dan deb bilishga moyil bo'ladigan odamlar bor. Shunaqa paytda nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirilishi to'g'risida gapiriladi. Bu toifaga mansub o'quvchilar olingen qoniharsiz baqolarini istagan vaj-baqona bilan tushuntirishadi. Tadqiqotlar nazoratning eksternal lokallikka moyilligi mas'uliyatsizlik, o'z imkoniyatlariga ishonmaslik, xavfsirash, o'z niyatlarini ro'yobga chiharishni yana va yana kechiktirishga intilish kabi shaxsiy fazilatlar bilan boqliq ekanligini ko'rsatdi. Agar inson, odatda o'z qilmishlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olsa va uning sabablarini o'z qobiliyati, xarakter iva shu kabilarda deb bilsa, unda nazoratning ichki (internal) lokallahushi ustun deb qisoblash uchun asos bor. Nazoratning ichki lokallashtirilishi xos bo'lган odamlar maqsadga erishishda ancha ma'suliyatli, izchil o'z-o'zini tahlil qilishga moyil qamda mustaqil bo'lishi aniqlangan.

Iordaning asosini, xuddi umuman sub'ektning faolligi kabi, uning xattiharakatlari va ishlarining ko'p tarmoqli va xilma-xil motivlashtirilishiga sabab bo'luvchi eqtiyojlari tashkil etadi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik xodisalarning o'zaro mustaqkam boqlangan, lekin bir-biriga to'la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi.

Bu, birinchidan, individning eqtiyojlarini qondirish bilan boqliq bo'lган faoliyatga undovchi sifatida namoyon bo'luvchi motiv sifatidagi motivlashtirishdir. Bu qolda motivlashtirish faollik holati umuman nima uchun paydo bo'lishini, sub'ektni faoliyat ko'rsatilga qanday eqtiyojlar undayotganini izoqlab beradi.

Ikkinchidan, motivlashtirish faollik nimaga haratilganligini, nima uchun qandaydir boshqa qulq-atvor emas, balki xudi shunaqasini tanlanganligini izoqlab beradi. Bu erda motivlar qulq-atvor yo'naliшини tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yo'naliшини tashkil etadi.

Niqoyat, uchinchidan, motivlashtirish kishi axloqi va faoliyatni o'zi boshharadigan vosita qisoblanadi. Bu vositalarga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar va boshqalar kiradi.

Irodaviy aktda (irodaviy harakatda) uni motivlashtirishning barcha uchta tomoni – faollik manbai, uning yo'naliшligi va o'z-o'zini boshharish vositalari namoyish qilingandir.

Shunday qilib, eqtiyojlar bir xil harakatlarning bajarilishini belgilaydigan va boshqalarining bajarilishiga qalaqt beradigan har xil motiv (sabab) larga aylanadi. Irodaviy harakatlarning sabablari qamisha ozmi-ko'pmi darajada anglanilgan xarakterda bo'ladi. U yoki bu eqtiyojning qanchalik anglanilganiga boqliq qolda intilish va istakni qam farq qilsa bo'ladi.

Intilish – qali etarli darajada anlanilmagan eqtiyojdan iborat faoliyat

motividir. Masalan, kishi kimgadir intilishni boshdan kechirayotib, o'z intilishining ob'ektini ko'rganda, u bilan gaplashganda mammun bo'ladi va shu sababli beixtiyor bu uchrashuvga intiladi. Lekin ba'zida xuzur-qalovatga sabab bo'lgan narsani u anglamaydi. Intilish noaniqdir.

Istak – faoliyatning motivi sifatida eqtiyojning etarli darajada tushunib etilganligi bilan xarakterlanadi. Masalan, novator ishchi meqnat unumdorligini ancha oshirish istagini bildirib, o'z stanogini yanada takomillashtirish to'g'risida o'ylaydi, o'z ish jadvalini yana qayta ko'rib chiqadi, har bir harakatini qisobga oladi va qokazo.

Faoliyatning butun sabablari kishining yashash sharoitlarini aks ettirish va uning eqtiyojlarini faqmlash natijasi qisoblanadi. Ana shu sabablar orasida qayotning har bir daqiqasida bir xillari ko'proq, boshqalari kamroq ahamiyatga ega bo'ladi. Kishida turli eqtiyojlar ahamiyatining o'zgarishi munosabati bilan bir qator qollarda motivlar kurashi paydo bo'ladi: bir istak boshqa istakka haramaharshi qo'yiladi, u bilan to'qnashtiriladi.

Muqokama va motivlar kurashi natijasida haror qabul qilinadi, ya'ni muayyan maqsad va unga erishish usuli tanlanadi.

Irodaviy qatti-harakatning so'nggi jihatni ijrodir. Unda haror harakatga aylanadi. Ijroda, irodaviy qatti-harakatda yoki ishlarda kishi irodasi namoyon bo'ladi. Kishining irodasi haqida atigi birgina yuksak qoyaviy motivlarga va qaqramonona haror va niyatlargacha harab emas, balki ishlarga harab qukm chiharish kerak. O'z navbatida ishlar tahliliga harab, u tayangan motivlar to'g'risida xulosa qilish mumkin. Motivlarni bilgandan keyin bunday qollarda kishi o'zini qanday tutishi mumkinligi haqida oldindan aytib berish mumkin.

Iroda faoliyatning ichki qiyinchiliklarini engishga haratilgan ongli tuzilma va o'z-o'zini boshharish sifatida eng avvalo o'ziga, o'z hissiyotlariga, xattiharakatlariga qukmronlik qilishdir. Bu qukmronlik har xil odamlarda har xil darajada ifodalanishi qammaga ma'lumdir. Kuchli irodaga ega bo'lgan kishi qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida uchraydigan istagan qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi, ayni choqda qa'iylik, mardlik, jasurlik, chidamlilik kabi irodaviy fazilatlarni namoyon qiladi. Irodasi sust kishilar qiyinchiliklar oldida ojizlik qiladilar.

Irodasi sustlikning namoyon bo'lish doirasi xuddi kuchli irodanining xarakterli sifatlari kabi rang-barangdir. Irodasi sustlikning eng chekka darajasi psixika normasi chegarasidan tashharida bo'ladi. Abuliya va apraksiya qollari shunga kiradi.

Abuliya – bu miya patologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga intilishning yo'qligi, harakat yoki uni bajarish uchun bajarish uchun haror qabul

qilish zarurligini tushungan qolda shunday qilolmaslikdir. Tabiiy qulq-atvor uning uchun xarakterlidir.

Apraksiya – miya tuzilishining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidir.

Ular psixikasi oqir kasallangan odamlarga xos, nisbatan kamyob qodisalardir.

Pedagog kundalik ishda duch keladigan irodaning sustligi, odatda miya patologiyasi bilan emas, balki noto'g'ri tarbiya bilan belgilanadi.

Yalqovlik - kishining qiyinchiliklarni engishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-qayrat ko'rsatishni qat'iy ravishda istamasligi iroda sustligining eng tipik ko'rinishidir. Yalqovlik – kishi ojizligi va sustligining, uning qayotga layoqatsizligining, umumiy ishga befarqligining dalilidir. Yalqovlik – kishining qiyofasidir, shuning uchun qam uni butun choralar bilan yo'qotish zarur. Yalqovlik, shuningdek, ojizlikning boshqa ko'rinishlari – qo'rkoqlik, jur'atsizlik, o'zini tuta bilmaslik va boshqalar shaxsning rivojlanishidagi jiddiy kamchiliklardir, ularni bartaraf etish jiddiy tarbiyaviy ishni va avvalo o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etishni talab qiladi.

Iordaning ijobjiy fazilatlari, uning kuchini namoyish qilinishi faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, kishi shaxsini eng yaxshi tomondan ko'rsatadi. Bu kabi irodaviy fazilatlarga qaqraronlik, sabotlilik, qat'iylik, mustaqillik, o'zini tuta bilish va shu kabilar kiradi.

Pedagogning vazifasi – faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko'rsatib berishdan, ularning muqim axloqiy printsiplari bilan ichki aloqasini olib berishdan tashhari o'z irodasini o'zi tarbiyalashga intiluvchi o'quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko'rsatishdan iboratdir. Masalan, o'quvchilardan biri «sabr toqatini rivojlantirish» uchun kinokomediya ko'rsatilayotganda kulmaslikka harakat qildi, kimdir qo'lini pichoq bilan kesdi va qokazo. Irodani mustaqil tarbiyalashning ana shu usullari samarasizligi eng avvalo shundaki, o'spirin bir laqzalik «irodaviy xatti-harakat»ni amalga oshirib, o'zining irodasi kuchli ekanligi to'g'risida fikrni tasdiqlab oladi.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari turli xil bo'lib, ularning qammasi quyidagi shartlarga amal qilishni o'z ichiga oladi.

1. Irodani tarbiyalashni nisbatan arzimas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Oldiniga unchalik katta bo'limgan qiyinchilikni, vaqt o'tishi bilan esa ancha katta qiyinchiliklarni muntazam ravishda engib borib, kishi o'zining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi.

2. qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi. Maqsad qanchalik ahamiyatli bo'lsa, irodaviy motivlar

darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kishi shunchalik qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodirdir.

3. qabul qilingan haror bajarilishi kerak. har gal, qachonki, haror qabul qilinib, uning bajarilishi kechiktirilaversa, kishining irodasi ishdan chiqadi. haror qabul qilayotib, uning qam maqsadga muvofiqligini, qam bajarilishini qisobga olishimiz kerak.

Kishining kundalik rejimga butun qayotining to'g'ri tartibda olib borilishiga olib borilishiga qat'iy amal qilinishi, kishi irodasining shakllanishi uchun muqim shartlar qatoriga kiradi. Irodasi bo'sh odamlar ustidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ular na o'z ishlarini, na dam olishlarini tashkil qila olmaydilar. Irodali kishi – o'z vaqtining xo'jayini.

Sport bilan muntazam shuqullanish kishi irodasini chiniqtirishning muqim shartlaridan biridir.

Jumladan, shuni aytish kerakki, asosiy irodaviy fazilatlarning rivojlanishi kishining boshqa insonlar bilan muloqoti jarayonida yuz beradi.

Tayanch so'zlar:

Emotsiya, stenik, astenik, affekt, kayfiyat, qayajonlanish (stress holati) eqtiros, lokallashtirish, eksternal, internal, abuliya, apraksiya, irodaviy akt.

Nazorat savollari.

Xis-tuyg'ular haqida umumiy tushuncha bering.

hissiyot turlarini izoqlang.

Irodaviy qatti-harakatlarga ta'rif bering.

Asosiy hissiy holatlar va ularning tashqi ifodasi nimalardan iboratq

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. qoziev E. Psixologiya. –T., 1994.
2. Nemov R.S. Psixologiya. V 2-x kn. –Kn. 1. –M., 2003.
3. Psixologiya. Uchebnik. Pod. Red. A.Kro'lova. –M.,1998.
4. Vo`gotskiy L.G. Problema voli i ee razvitie v detskom vozraste. –Sobr. soch., 2-tom. M., Pedagogika, 1982.
5. Muzdibaev K. Psixologiya otvetstvennosti. L., Nauka, 1983. Xrestomatiya po psixologii. M., Prosveqenie, 1977.

7 – MAVZU. Shaxsning bilish jarayonlari.

Reja:

1. Bilish jarayonlari
2. Diqqat to'g'risida tushuncha
3. Sezgilar to'g'risida tushuncha va ularni klassifikatsiya qilish negizlari.
4. Idrok va idrok qilish qonunlari
5. Xotira va shaxs tajribasining boyligi
6. Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati.
7. Tafakkurning turlari.

Bilish jarayonlari. Inson ongi bir harashda yaxlit narsa, aslida u ayrim aloqida jarayonlardan iborat. Shuning uchun qam atrof - muqitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni aloqida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir - birlari bilan boqliqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmiq Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtida qam ilgarigi idrok obrazlari, qam eslab qolish maqoratimiz, qam ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo'ladi. Xattoki, tasodifan qo'limizga kirib ketgan zirapchaga bergen reaktsiyamiz qam emotsiyalardan tashhari, o'sha narsaning bu erda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiharadi.

Ma'lumki, odamlar bir-birlaridan ko'p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ayrimlar ko'rgan - kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtida aniq esga tushira oladilar. Ba'zilar ko'zi bilan ko'rgan har qanday ob'ektni mayda detallarigacha bayon etish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqroq fikrlaydi, kimdir sodda, ravon tilga o'z xis - kechinmalarini ayta olsa, boshqalar - har bir qikoyaga albatta, fantaziya elementlarini qo'shishga moyil bo'ladir. Demak, odamlarning tashqi olamdan oladigan taasurotlari va ularni ongda tartiblashtirish qobiliyatları har xil bo'larkan. Ikkinci tomondan, shunday kasb - korlar borki, u shaxsagi u yoki bu sifatlarning mukammalashib borishiga imkon beradi. Masalan, yirik avtomatik boshharuv tizimlarida ishlaydigan operator o'z diqqatini har qanday mayda o'zgarishlarga qam haratishga o'rgansa, konstruktor mavqum matematik qisob - kitoblarga usta bo'lib boradi. Demak, odamning tashqi olam xossa va xususiyatlarini ongida aks ettirishi uning iqtidori o'sishi va professional malakalari rivojlanganligiga boqliq tarzda kechadi. Shuning uchun har ongning muqim aks ettirish shakllari bo'lmish bilish jarayonlari - idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlarning inson qayoti va professional o'sishidagi roliga to'xtab o'tamiz.

Idrokning aniqligi va samaradorligiga bevosita aloqador bo'lган psixik jarayonlardan biri — diqqatdir. Shuning uchun qam uyqusirab o'tirib ma'ruza tinglagan talabaning o'sha ma'ruza matnini idrok qilishi qay darajada bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Shuning uchun qam biz diqqatimizni kerakli ob'ektda ushlash uchun, yuqorida misolda talabaning ma'ruzani to'la idrok qilishi uchun konspekt qilish kerakligi tavsiya etiladi. Chunki, shu paytda ongimiz eshitayotgan so'zlarning mazmuniga haratilgan bo'ladi. Demak, diqqat — shunday psixik jarayonki, uning yordamida ongimiz o'zimiz uchun ahamiyatli bo'lган narsalar, qodisalar, prsdmetlar mohiyatiga haratiladi. Ya'ni, diqqat — ongning yo'nalgaligini tushuntiruvchi psixik jarayondir. Gap shundaki, bizni o'rab turgan borliq va undagi qodisa va predmetlar dunyosi shunchalik murakkab va turfaki, biz ongimizni bir vaqtida ularning barchasiga birdan yo'naltira olmaymiz. Diqqat shuning uchun kerakki, u bizga ayni vaqtida kerak bo'lган ob'ektni shu turfaning orasidan ajratib, uni o'rganish yoki tanishishga imkon beradi. Masalan, o'qituvchining savoliga javob berayotgan o'quvchini tasavvur qiling: gapirayotib, barmoqlari bilan daftaring

qirqoqini qadeb buklayotganligini o'zi sezmaydi. O'qituvchining «Daftarni tinch qo'y», degan tanbeqigina uning diqqatini o'zi amalga oshirayotgan harakatga yo'naltiradi. Diqqatning asosan ikki xil turi farqlanadi: ixtiyoriy va beixtiyor diqqat. Agar ixtiyoriy diqqat shaxs ongанинг bevosa ти о'зи учун аhamiyatli ob'ektlarga ataylab jalb etishi bo'lsa, (masalan, ma'ruzani to'la tushunish учун talabaning urinishlari) beixtiyor diqqat narsa va qodisalarning mazmun va mohiyati, jozibasiga boqliq tarzda ongimizning ma'lum narsalarga yo'nalganligidir. Masalan, tijorat do'konida mashqur aktyor kiyib rol o'ynagan ko'ylak qizlarning diqqatini beixtiyor o'ziga tortadi. Bundan tashhari ixtiyoriydan so'nggi diqqat turi qam mavjud.

Diqqatni jalb etishning bir nechta universal qondalari bor. Masalan, birinchisi — kontrast qonuni. Masalan, televizor ko'rib o'tirib, birdan bir kanalning boshqasi bilan ulanib qolishi, ranglarning birdan almashinishi, xorij safari vaqtida kutilmaganda ona tilida kimningdir orqangizda turib gaplashishi kabilar idroknani aniqlashtirish va buning учун diqqatni o'sha narsaga haratishga sabab bo'ladi yoki Toshkentning an'naviy qiyofasida paydo bo'lgan o'ta zamonaviy bino, masalan, Banklar assotsiyatsiyasi binosi kontrast effekt beradi, chunki u boshqa ob'ektlardan tub farq qiladi. Shuning учун qam diqqatimiz noan'anaviy, ajralib turadigan narsalarga idrokimizni, ongimizni yo'naltiradi.

qaytaruv qonuni. Saylov oldi jarayonlarida nomzodlar o'z fotosuratları yoki siyosiy partiyalari haqidagi ma'lumotlarni har bir maqalla va katta ko'chalarga iladilarki, shu orqali ko'pchilikning dikqatini o'zlariga jalb qiladilar.

Yangilik qonuni. Ma'lumotning yangiligi, shaxs учун kutilmaganda paydo bo'lishi qam diqqatni jalb etuvchi kuchli omil. Reklamada qam «Birinchi marta» deb berilgan ma'lumot, ijgimoiy jarayonlardagi yangiliklarning o'ziga xos betakrorligi, do'stingiz ustidagi yangi kostyum, bildirilgan yangi fikr yoki qoya albatta, o'zgalar diqqatini o'ziga tortmay qolmaydi.

Ommaviy ta'sirlanish qonuni. Ommaviy axborot vositalari orqali bugun dunyoga taralayotgan biror xabar, yoki ataylab odamlar o'rtasida tarqatilgan «mish-mish» yoki «shov-shuvlar» aloqida ayrim shaxslarning qam diqqat markaziga tushadi. qolaversa, biz qammani qiziqtirgan, qamma gapirib yurgan ma'lumotga ishonamiz, qamma kiygan libosga e'tibor haratib, o'zimizda qam bo'lishini xoqlaymiz.

Sezgilar-psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida xayvonlarga qam, odamlarga qam xos qususiyat bo'lib, u voqelikdagi narsa va xodisalarning ayrim belgi va qususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi. Sezgilar kishiga tevarak-atrofdagi narsa va voqealarning qususiyatlarini bilishga imkon beradi.

Sezgi a'zolari kishiga tevarak-atrofdagi olamda mo'ljal olish imkonini beradi. Agar kishi barcha sezgi a'zolaridan maxrum bo'lib qolsa bormi, u o'zining atrofida nimalar yuz berayotganini bila olmas, tevarak-atrofdagi odamlar bilan munosabatga kirisha olmas, ovqatni qidirib topa olmas, xavf-xatardan qutilib qola olmas edi.

Kishining qayoti va faoliyatida sezgilarning roli juda katta, negaki, ular bizning olam haqidagi va o'zimiz to'g'rimizdagи bilimlarimiz manbai qisoblanadi. Sezgilar bizga ob'ektiv voqelikning qaqyoniy suratini beradi, ya'ni olamni u qanday mavjud bo'lsa shundayligicha aks ettiradi. Tovushlar, xidlar va boshqa kuzatuvchilar ko'zga ta'sir qilganda ko'rish sezgilarini qosil qilmaydi. Xuddi shuningdek, nur va xid qam eshitish kuzata olmaydi.

Muayyan sezgi a'zolari uchun bir xildagi qo'zqatuvchilarni va uning uchun bir xilda bo'lмаган qo'zqatuvchilarni farq qila bilish kerak. Sezgi a'zolarining ixtisoslashishi—uzoq davom etadigan evolyutsiya maqsuli, sezgi a'zolarining o'zi esa tashqi muqit ta'siriga moslashuvchanlik maqsulidir. Sezgi a'zolari organizmning muqitga moslashuvi jarayoniga xizmat qilar ekan, ular uning ob'ektiv qususiyatlarini aks ettirgan taqdirdagina o'z funktsiyasini muvaffaqiyatl bajarishi mumkin. Shuning uchun tashqi olamning o'ziga qos qususiyatlari sezgi a'zolarining o'ziga qosligini keltirib chihargandir. Sezgilar mohiyatiga ko'ra ob'ektiv olamning sub'ektiv siy whole is. I.P.Pavlov qo'lning pasayib ushslash harakatlarini ijrochilik xatti—harakatlari emas, balki xatti—harakatning aloxida turipertseptiv xatti—harakatga taalluqli mo'ljaliy—tadqiqiy reaktsiyalaridir, deb atagan edi.

Sezgi nerv sistemasining u yoki bu kuzatuvchidan ta'sirlanuvchi reaktsiyalari tarzida qosil bo'ladi va har qanday psixik qodisa kabi reflektorlik qususiyatiga egadir. Kuzatuvchining o'ziga aynan o'xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida qosil bo'ladigan nerv jarayoni sezgining fiziologik negizi xisoblanadi.

Analizator uch qismidan iborat:

1. Tashqi quvvatni nerv jarayoniga o'tkazadigan maqsus transformator qisoblangan periferik bo'lim (retseptor);
2. Analizatorning periferik bo'limini markaziy analizator bilan boqlaydigan yo'llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qoluvchi) nervlar;
3. Analizatorning periferik bo'limlardan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan qobiq osti va qobiq (miyaning o'zi bilan tugaydigan) bo'limlari.

Analizator reaktsiyalarida periferik bo'limlarining muayyan xujayralari miya qobiqidagi xujayralarning ayrim qismlariga mos bo'ladi. Jumladan, ko'z turpardasining turli nuqtalari qobiqda har xil nuqtalarda yoyilgan xolda gavdalangan bo'ladi; eshitish a'zosi qam qobiqda barcha sezgi organlariga qam taaluqlidir.

Sun'iy kuzatish metodlari bo'yicha o'tkazilgan ko'plab tajribalar xozirgi paytda u yoki bu sezgi turlarining miya qobiqidagi ma'lum bir joyda chegaralanib qolishini etarlicha aniq qilib belgilash imkonini beradi. Jumladan, ko'rish sezgilarini joylashgan qism, asosan bosh miya qobiqining ensa qismida joylashgandir. Eshitish sezgilarini miya qobiqi tepa burmasining o'ita qismiga joylashgan. To'yish—harakat sezgilarini miya qobiqi markaziy burmasining orqa qismiga joylashgan va x. k.

Sezgi jarayoni tashqi ta'sirning o'ziga xos quvvatini saralash va qayta o'zgartirishga haratilgan qamda tevarak—atrofdagi olamning aynan bir xilda aks etishini ta'minlaydigan sensor ta'sir o'tkazish sistemasi sifatida yuz beradi.

Kishidagi sezgilar haqida gapiranimizda adaptatsiya tushunchasi to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Adaptatsiya—moslashuv bo'lib, sezgi organlari sezgirligining qo'zqatuvchi ta'siri ostida o'zgarishi demakdir. Adaptatsiya xodisasi uch xil turda:

1. qo'zqatuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo'qolib qolishiga o'xshaydi, masalan, xid bilish sezgilarini atrof—muxitga yoqimsiz xid yoyilgandan keyin ko'p o'tmay batamom yo'qolib qolishi qam oddiy

xodisadir. Agar tegishli moddani oqizda bir oz vaqt saqlab turiladigan bo'lsa, ta'm bilish sezgisining jadalligi susayadi va sezgi umuman yo'qolib ketishi mumkin.

2. Adaptatsiya deb shuningdek, yuqorida bayon etilgan xodisalarga yaqin bo'lган, kuchli kuzatuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishi bilan ifodalanadi xodisaga qam aytildi. Masalan, sovuq kuzatuvchi xosil qiladigan sezgining jadalligi qo'lni sovuq suvga solganda susayadi. Kishi yarim qoronqi xonadan yaqqol, yorqin yoritilgan xonaga chiqqanda, ko'z qamashadi, tevarak-atrofdagi narsalarning farqini ajratish qiyin bo'lib qoladi, bir oz fursatdan keyin esa ko'rish analizatorining sezuvchanligi keskin susayib, odatdagidek ko'ra boshlaydi va adaptatsiya xodisasi kechadi.

Adaptatsiya bu ikki turi negativ adaptatsiya deyiladi, negaki, bunda analizatorning sezuvchanligi susayadi.

3. Kuchsiz qo'zqatuvchining ta'siri ostida sezgilikning oshishi qam adaptatsiya deyiladi, buni pozitiv adaptatsiya deb qam ataladi. Masalan, qoronqi ko'p bo'lishi natijasida ko'z sezuvchanligi ortadi. (Graf Monte Kristo misolida tushuntirish mumkin).

Sezgi a'zolarining sezuvchanligining oshishiga olib boradigan ikki soxa mavjuddir: 1) sensor nuqsonlar (ko'rlik, karlik)ning o'rnini to'ldirish zaruratidan kelib chiqadigan sezuvchanlikning ortishi va 2) sub'ekt faoliyati tufayli kasbiga xos talablardan kelib chiqadigan sensibilizatsiya (sezuvchanlikning ortishi).

Ko'rish yoki eshitish sezgisining yo'qotilganligi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish qisobiga to'ldiriladi, masalan, ko'ra olmay qolgan kishilar xaykaltaroshlik bilan shuqullandanganlar, chunki ularda tuyish sezgisi yuksak rivojlangan bo'ladi. Ba'zi maqsus kasb bilan uzoq vaqt mobaynida shuqullanish qam sezgi a'zolari sezuvchanligi kuchayishi olib kelganligini ko'rish mumkin, masalan, choy, pishloq, vino, tamaki sifatini aniqlovchilarda xid va ta'm bilish sezgilari yuksak darajada mukammallahib bo'ladi. (Kinofilm–Nartsiss misolida tushuntirish mumkin).

Idrok va idrok qilish qonunlari. Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni figura va fonda idrok qiladi. Figura - shunday narsaki, uni aniq anglash, ajratish, ko'rish, eshitish va tuyish mumkin. Fon esa aksincha, noaniqroq, umumiyoq narsa bo'lib, aniq ob'ektni ajratishga yordam beradi. Masalan, gavjum bozorda ketayotgan taqdirda qam o'z ismimizni birov aytib chaqirsa, darrov o'sha tarafga haraymiz. Ism - figura bo'lsa, bozordagi shovqin - fon rolini o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz biror narsani idrok qilayotgan paytimizda uni albatta biror fondan ajratib olamiz. Masalan, gul bozorida aynan qip-qizil atirgul sizga yoqib qolib, o'shani xarid qilasiz, qolgan gullar fonday ongingiz aktiviga o'tmaydi. Shunday qilib, idrok - bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko'plab, xilma-xil predmet va xodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan ob'ektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks etishimizni ta'minlaydi. Ya'ni, idrokning asosida narsa va xodisaning yaxlitlashgan obraqi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq qiladi. Idrok o'ziga nisbatan soddarоq bo'lган sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Masalan, olmaning shaklini, xidini, mazasini, rangini sezamiz, ya'ni aloqida - aloqida xossalalar ongimizda aks etadi. Bu - sezgilarimizdir. Sezgilar yaxlit tarzda idrok jarayonini ta'minlaydi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzdagi birlashuvi, degan fikrga mutloq harshilar.

Chunki idrok ongli, maqsadga haratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu ob'ektga shaxsiy munosabati va idrokdag'i faolligi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, buni isboti uchun ko'pincha Rubin figurasi tavsiya etiladi. Unda ikkita qora profil oq fonda berilgan. Bir harashda ayrimlar bu rasmlarga harab, "Bu - vaza" deb atasa, boshqalar uni bir - biriga harab turgan ikki kishi yuzining yon tomondan ko'rinishi, deb ta'riflashi mumkin. Shunisi xarakterlik, birinchi marta shu rasmni ko'rgan odam uni yaxlit idrok qilib, nima ekanligini tushunishga xarakat qiladi, lekin biror figurani ko'rgach, ma'lum vaqtgacha boshqasini ko'rmay turadi. Agar shu idrok darajasi qolsa, ya'ni yana nimanidir ko'rishni xoxlamasa, u ikkinchi figurani ko'rmasligi qam mumkin. Bu bizdagi idrok jarayonlarining faolligimizga, ob'ektga munosabatimizga bevosita boqliqligini ko'rsatib turibdi. Ikkinchidan, idrok bizning kayfiyatimizga qam boqliq. Tashvish bilan yo'lakchadan o'tib ketayotib, oyoqingiz tagidagi narsa tugul, ro'paradagi odamni qam ko'rmay qolishingiz mumkin. Yoki san'at muzeyida tomosha qilib yurgan ikki kishi bir rasmida tamoman har xil narsalarni, elementlarni ko'rishi mumkin. Yaxshi kayfiyatda, yaxshi dustlar kompaniyasida iste'mol qilgan taom sizga juda mazaliday tuyuladi. Agar talaba biror fan predmetidan harzdor bo'lib qolsa, och qoringa egan shirin taomi qam "ta'timaydi", xatto nima eganini qam unutib qo'yadi. Yomon kayfiyat ko'proq qora, nursiz ranglarni idrok qilishga moyil bo'lsa, yaxshi ko'tarinki kayfiyat, aksincha, qamma narsani eng yoqimli ranglarda "ko'radi". Bu yana bir bor idrokning oddiygina aks ettirish yoki bilish jarayoni emas, balki shaxsdagi faol ustakovkalarga boqliq bo'lган, mantiqan asoslangan ongli jarayon ekanligini isbotlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxs idrok qilishi jarayonlariga xos bo'lган bir nechta qonuniyatlarni belgilaymiz:

A. Figura va fonning ilgarigi xarakatga boqliqligi qonuni. Bu qonunning ma'nosi : odam ilgarigi tajribasida bo'lган, bevosita to'qnash kelgan narsalarini idrok qilishga moyil bo'ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo'lsa, demak, keyingi safar qam uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo'lган bo'lsa, tabiiy, fonday qabul qiladi. Bu qonnuning qayotdagi o'rni chet davlatlarda borgan turistlar tajribasiga tayanib tushuntirilishi mumkin. O'zbekistonliklar Er kurrasining qaysi burchagida bo'lmasin, o'zbek do'ppisi yoki atlas ko'yakni juda tez ilqab oladilar va suyunib ketadilar qam. Yonidagi sheriglari o'zbek bo'lsa qam, aynan do'ppili o'zbekni ko'rib, ko'zlar yashnab ketadi. Boshqa millat vakillari, masalan, nigeriyalik qam milliy ko'ylagida yurgan bo'lishi mumkin, lekin o'zbek turist uchun bu kiyim fon edi, fonligicha qoladi qam.

B. Idrokning konstantliliqi qonuni. Bu qonun ma'lum ma'noda oldingisiga boqliq. Ya'ni bunda qam ilgarigi tajriba katta rol o'ynaydi. Ma'nosi : odam o'ziga tanish bo'lган narsalarni o'sha xossa va xususiyatlar bilan o'zgarishsiz idrok qilishga moyildir. Masalan, samolyot ichida o'tirib erga haraganmisizq Avtomobil yo'llari, ularda xarakat qilayotgan mashinalar kichkina ko'rindi, lekin biz ularni qozir kichrayib qolgan, deb idrok qilmaymiz-kuq Aslida ko'z qorachiqimizdagi aks kichkina bo'lsa-da, ularni o'zimiz "to'g'rilib" aloqida predmetlar sifatida idrok qilaveramiz.

Bu o'rinda bir etnografning Afrikadagi kuzatishi xarakterli. U kunlarning birida

pigmeylar deb ataluvchi qabila vakillaridan biri biri bilan quyuq o'rmondan chiqqan (bu qabilaning umri qalin o'rmonda o'tadi). Ro'parada yaylovda sonsiz mollar podasi o'tlab yurgan bo'lган. Etnograf ularni oddiy mollar podasi sifatida idrok qilgan, pigmey esa ularni chumolilarga o'qshatib, ularning ko'pligi va kichikligidan xayratlangan. Olimda idrokning konstantligi namoyon bo'lган bo'lsa, uning sherigida uning buzilganligi kuzatilgan.

Demak, idrokimizning konstantligi, ya'ni ilgarigi tajriba asosida narsalarning xossa va xususiyatlarini o'zgartirmay, turqun xolda yaxlit tarzda idrok qilish xususiyati bizga tashqi muqitda to'g'ri moslashuvimiz, narsalar dunyosida adashmasligimizni ta'minlaydi. Konstantlik - "constanta" so'zidan olingan bo'lib, o'zgarmas, doimiy degan ma'noni bildiradi.

V. Kutishlar va taxminlarning idrokka ta'siri. Ko'pincha bizning idrokimiz ayni paytda biz nimalarni kutayotganimizga boqliq bo'lib qoladi. Biz o'zimiz kutgandan qam ko'p paytlarda o'zimiz ko'rgimiz kelgan narsalarni ko'ramiz, eshitgimiz kelgan narsani eshitamiz. Masalan, sonlar qatorida paydo bo'lган V harfi uzoqdan albatta 13 soniday idrok qilinadi, yoki aksincha harflar orasidagi 13 "V" ga juda o'qshaydi. Kechasi yolqiz qolib kimnidir kutayotgan bo'lsangiz, har qanday juda sekin sharpa qam oyoq tovushlariga o'xshayveradi. Soqingan do'stingizga biror jihat bilan o'qhash bo'lган odamni ko'rsangiz-chiq Shunday qilib, inson idroki shaxsiy ma'no va ahamiyat kasb etgan ma'lumot vositasida ongdagi bo'shliqni to'ldirishga xarakat qiladi. Birovning orqadan chaqirishini kutayotgan bo'lsangiz, negadir albatta, bosh harfi to'g'ri kelgan ismni aytsa qam tezginada o'sha tomonga o'girilib haraysiz. Aynan shunday xodisalar ba'zan idrokdag'i xatoliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Amerikalik Dj. Begbi degan olim stereoskop orqali amerikalik va meksikalik bolalarga shakli unchilik aniq bo'lman slaydlarni birin-ketin ko'rsatgan. Amerikalik bolalar ularni beysbol o'yini, oq sochli qiz ifodalangan desalar, meksikalik bolalar ularni buqalar jangi, qora sochli qiz, deb ta'riflaganlar. Ko'pchilik bolalar esa ko'rsatilgan ikkita rasmdan faqat bittasini ko'rganini e'tirof etganlar. Demak, bizning idrokimiz, uning mazmuni madaniy va ma'naviy muqitga qam boqliq bo'lib, bu kutishlar tizimidan kelib chiharkan.

G. O'zgarmas ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni. Bu qonunning mohiyati shundaki, muntazam ta'sir etuvchi ma'lumot ongda uzoq ushlab turilmaydi. Masalan, o'tirganingizda soatning tikkilashini eshitganmisizq qa, tovush eshitiladi, lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng go'yoki u yo'q bo'lib qolganday - eshitilmaydi. Yoki eksperiment sharoitida yolqiz bitta nuqtadagi yoruqlik manbai ko'zga ta'sir etilib, ko'z qam shu nuqta bilan bir vaqtida xarakatga keltirib turilganda, 1-3 sekunddan so'ng odam yoruqlik manbaini ko'rmay qo'ygandek. Shunga o'xhash eksperimentlar barcha idrok turlarida qam sinalgan. Past oqangli kuy qam ma'lum vaqt dan keyin eshitmaganday qisni keltirib chiharishini sinab ko'rishingiz mumkin.

Nutq vositasida xadeb bir xil so'zlarni qaytaraverish psixoterapevtik praktikada gipnotik xolatni keltirib chiharuvchi omil sifatida ishlatiladi. Chunki bir xil so'zlar xadeb qaytarilaversa, ular o'zining ma'no - mohiyatini qam yo'qotadi. Masalan, ko'chalarda yuradigan "folbinlar"ni ko'rganmisizq Ular avtomatik tarzda aytadigan so'zlari aslida ularning o'zлари uchun umuman ma'nosini yo'qotgan

(“baxtingdan ochaymi, taxtingdan ochaymiq” va xakozo shunga o’xhash so’zlar). har qanday xarakat xadeb qaytarilaversa, “psixologik to’yinish” xodisasi ro’y beradi va xarakatlar avtomatlashib, uning ayrim detallari umuman ong nazoratidan chiqadi. Masalan, maqoratli raqqosa har qanday raqsga qam chiroyli, jozibali xarakatlar bilan o’yin tushib ketaveradi.

D. Anglanganlik qonuni. Idrok qilayotgan shaxs uchun figuraning anglanganligi, uning zarurati va ma’nosи katta ahamiyatga ega bo’ladi. Agar biz kuzatayotgan predmet, eshitayotgan nutq yoki qis qilayotgan narsamiz ma’nosiz, tushunarsiz, noaniq bo’lsa, biz juda tez charchaymiz va toliqamiz. Masalan, xitoy tilini bilmaydigan odam shu tilda so’zlashuvchilar orasiga tushib qolsa, psixologik jihatdan juda qiynaladi. Ya’ni, bizga barcha narsalarda biror ma’no va mazmun kerak. Odam odatda tushunadigan narsasinigina idrok qiladi. qattoki, ma’ruzachining bugun tushuntirayotgan ma’ruzasidagi faktlar sizning tushunchalariningiz va bilim doirangizdan uzoq bo’lsa, professorga harab o’tirgan bo’lsangiz qam uning gaplari quloqingizga kirmaydi. Shunday paytlarda “Nima deyapti o’ziq” deb qo’shnimizdan so’rab qo’yamiz qam, zero ma’ruzasi o’sha biz uchun qadrdon bo’lgan o’zbek tilida gapiRAYOTGAN bo’lsa qam. Sinab ko’rish uchun o’rtoqingizga bir nechta so’zlardan iborat qatorni bering. Ular orasida mazmunan bir - biriga boqliq bo’lmagan so’zlar, xattoki ma’nosiz (teskarisiga yozilgan so’zlar) bo’lsin. Oraga 2-4 ta tanish o’zbek tilidagi so’zlardan aralashtiring . Bir daqiqa mobaynida harab, eslab qolganini qaytarishni so’rasangiz, o’sha 2-4 ta so’zlardan boshqalarni deyarli “ko’rmaganining” guvoqi bo’lasiz.

E. Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish. Biz idrok jarayonida ilgarigi tajribaga tayanganimiz bilan ko’pincha adashamiz, ba’zan esa o’zimiz uchun yangiliklar ochib, tajribani yanada boyitamiz. Ilgarigi tajriba va kelajakni bashorat qilish insonga xos xususiyat bo’lib, bizning sezgi organlarimiz orqali keladigan ma’lumotlarning ko’lami va imkoniyatlarini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan olib haralganda, idrok - tashki muqit to’g’risidagi taxminlarimizni isbot qilishga haratilgan faol jarayondir. Biz bevosita idrokimiz “tagiga etolmayotgan”, “tushunmayotgan” narsalarni bevosita qis qilgimiz, qo’limiz bilan ushlab ko’rgimiz, ular bilan ishlagimiz keladi. Ya’ni, idrok qilinayotgan narsada noaniqlik, sir paydo bo’lsa, biz “Bu nima bo’ldiq” degan savol asosida taxmin qila boshlaymiz va uni tekshirish uchun harakat qilamiz. Aynan harakatlar, amaliy ishlar idrokimiz imkoniyatlari va chegaralari kengaytiradi va anglashga yordam beradi. Shuning uchun qam har bir ishni boshlashdan avval nimaga egamiz, nima kerak va nima qilsak, tezroq yaxshi natijaga ega bo’lamiz, degan savol bilan o’zimizdagи tajribada bo’lgan bilimlarimiz bilan unchalik aniq bo’lmagan ma’lumotlarni tarozuga solish va imkon boricha nutqimiz, xarakatlarimiz bilan real tajribani kengaytirishga intilishimiz kerak. Shunday qilib, bir harshadha oddiyroq tuyulgan idrok qam inson bilimlari, tushunuvchanligi va faolligi bilan boqliq psixologik jarayon bo’lib, u aslida shaxsiy tajribamizning birlamchi asosi va bazasidir.

Xotira va shaxs tajribasining boyligi. Odam ko’rgan, qis qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma’lum bo’lishicha, bir vaqtning o’zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo’lgan ma’lumotning qolishi qiyin ekan ekan. Bu ettita so’z, son, belgi, narsaning shakli bo’lishi

mumkin. Agar telefon raqamlari 8 ta belgili bo'lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo'larkan. Demak, ongning tanlovchanligi va ma'lumotlarni saralab, terib ishlatishi yana bir psixik jarayonni - xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi.

Odatda biz biror bir materialni o'qiydigan bo'lsak, uni qech bir o'zgarishsiz eslab qolishga harakat qilamiz. Lekin ajablanarlisi shundaki, borgan sari material ma'lum o'zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisidan boshqacharoq bo'lib saqlanadi. Ba'zi bir material yoki ma'lumot xoqlasak qam xotiradan o'chmaydi, boshqasi esa juda qattiq xoqlasak qam kerak paytda yodimizga tushirolmaymiz Bu kabi savollar, inson bilish jarayonlaridagi eng muqim savollar bo'lib, ba'zan o'z taraqqiyotimiz va kamolatimizni qam ana shunday omillarga boqlagimiz keladi.

Ma'lum bo'lishicha, inson miyasi har qanday ma'lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma'lumot biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa, yoki o'zgarmasa, u ongdan tabiiy tarzda yo'qoladi. Lekin har doim qam bizning professional faoliyatimiz manfaatlariga mos ma'lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun qam ko'pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shuqullanadi.

X o t i r a - bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan boqliq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagи aksidir.

Inson xotirasining yaxshi bo'lishi, ya'ni xis-kechinmalarimiz, ko'rgan - kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga boqliq :

esda saqlab qolish bilan boqliq xarakatlarning yakunlanganlik darajasiga;
shaxsning o'zi shuqullanayotgan ishga nechoqlik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;
shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;
shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;
irodaviy kuchi va intilishlariga.

Xotira jarayonlari shaxsning faoliyatdagi yutuqlariga boqliq bo'lgani uchun qam, uning tabiat, qanday kechishiga ko'plab olimlar ahamiyat bergenlar. Masalan, nima uchun odam u yoki bu ma'lumotni xotirada saqlaydi, degan savolga turli olimlar turlicha javob beradilar. Masalan, fiziologlar uning sababini miyada qosil bo'ladigan nerv boqlanishlari - assotsiatsiyalar bilan boqlashsa, bioximiklar - ribonuklein kislota (RNK) va boshqa bioximik o'zgarishlar oqibatidadir, deb tushuntiradilar.

Psixologlar esa xotirani doimo inson faoliyati, uning shaxs uchun ahamiyati va motivlar xarakteri bilan boqlaydilar. Chunki shaxsning yo'nalanganligi, uning qayotdagi mavqeい va qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi aynan xotirasining mazmuniga boqliq. Shuning uchun xattoki, shunday gap qam bor: "Nimani eslashingni menga ayt, men sening kimligingni aytaman".

Amaliy nuqtai nazardan xotiraning samaradorligi va uni o'quv va meqnat faoliyati jarayonida oshirish katta ahamiyatga ega. Chunki ko'pincha odamlar orasida ishchanroqi, o'quvchi yoki talabalar orasida bilimliroqi qam bir harshda xotirasining kuchi bilan boshqalardan ajralib turadi. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning xotirasi haqida afsonalar yuradi. Masalan, u o'z qo'l ostidagi beklarning nafaqat ismini , balki otasining ismlarini qam yoddan bilarkan,

uchrashuvlarda bevosita nomini aytib murojaat qilarkan. Bu fazilat qam uning o'z qo'l ostidagilar orasida obro'inинг balandligiga ta'sir ko'rsatgan. Amerikaning mashqur Prezidentlaridan Avraam Linkoln qam ana shunday fenomenal xotirani o'z yaqinlari va ish yuzasidan u bilan boqliq bo'lган xodimlarga nisbatan namoyon etib, lol qoldirgan ekan. Demak, xotira tarbiyasi, uni kerakli yo'sinda rivojlantirish - kerak bo'lsa, shaxsiy obro' qamda ishdagi samara masalasi bilan bevosita boqliq ekan.

Umuman, xotiraning samaradorligi eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan boqlanadi. Demak, odamlar qam aynan shu sifatlarga ko'ra qam farqlanadilar:
materialni tezda eslab qoladiganlar;
materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar;
istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar.

Ba'zi odamlarning xotirasiga xos jihatlarni tuqma deb atashadi. To'g'ri, oliv nerv tizimi, uning o'ziga xos ishlash xususiyatlari xotiraning o'ziga xos individual uslubini belgilashi mumkin. Lekin qayotda ko'pincha shaxsning bilish jarayonlari va sezgi organlarining ishlash qobiliyatlariga boqliq tarzda ajralib turadigan tiplari haqida gapirishadi. Masalan, ayrim odamlar ko'rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning xotirasi ko'rgazmali - obrazli bo'lib, ko'zi bilan ko'rmaguncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi qam. Boshqalar esa o'zicha fikrlab, nomini aytib, mavqum tarzda tasavvur qilmaguncha, eslab qolishi qiyin bo'ladi. Bundaylar so'z - mantiqiy xotira tipi vakillaridir. Yana bir tipli odamlar bevosita qis qilgan, "yuragidan" o'tkazgan, unda biror yorqin emotsional obraz qoldirolgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar, bu - emotsional xotiradir. Lekin yana bir xotira egalari borki, ularni fenomenal xotira soqiblari deb atashadi. Psixologiyaga oid kitoblarda ana shunday xotiraga ega bo'lган kishilar to'g'risida ko'p yozilgan. Bu shunday kishilarki, ular bir vaqtning o'zida nisbatan juda katta qajmdagi ma'lumotlarni esda saqlay oladi va esga tushiradi. Masalan, tarixiy shaxslar orasida Yuliy Sezar, Napoleon, Motsart, Gauss, shaxmat ustasi Alexin kabi insonlar xotirasi ana shunday noyob bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Taniqli, rus psixologi va neyropsixologi A.R. Luriya qam ana shunday xotira soqiblaridan biri - asli kasbi jurnalist bo'lган Shereshevskiy degan shaxs xotirasini ataylab uzoq vaqt mobaynida o'rgangan. Uning xotirasi shunday ediki, Dantening "Iloqiylik komedyiasi"dan olingan uzundan - uzoq parchani bir marta harab olgandan so'ng, 15 daqiqadan so'ng so'zma - so'z aytib berolgan. Shunisi xarakterli ediki, komediya unga notanish bo'lган italyan tilida yozilgan edi. Ko'pchilikni qanday qilib yaxshi, mustaqkam esda saqlab qolish muammosi qiziqtirsa, Shereshevskiy uchun qanday qilib unutish masalasi murakkab edi. Uni xotira obrazlari doimo qynar, ko'rgan narsalari ko'z oldida gavdalaverar edi. qanday qilib eslab qolasizq degan savolga u shunday javob bergen : men "materialni" o'zimga tanish va sevimli bo'lган Moskva ko'chalariga joylashtiraman. Bir marta bir materialning bir bo'lagi o'sha "ko'chaning" salqin tushgan eriga tushib qolib, esga tushirishi ancha qiyin bo'lган ekan. Shunga o'xshash har bir fenomenal xotira egalarining o'ziga xos eslab qolish uslublari bo'lar ekan.

Shotlandiyalik matematik A. Etkin 1933 yili 25 ta bir - biri bilan boqlanmagan

so'zlardan iborat ikki qatorni eslab qolib, qech bir xatosiz uni 27 yildan keyin esga tushira olgan. "qilich va qalqon" kinofilmidagi rus razvedchigi I. Vaysning natsistlar tomonidan rejalashtirilgan birinchi navbatda batamom yo'q qilinishi lozim bo'lgan ob'ektlar - shifrlari bilan ko'rsatilgan ro'yxatini bir karra ko'rib chiqib, bir necha daqiqadan so'ng esga tushirganini eslang. U qam go'yoki, ko'rib turganday o'sha ro'yxatlarni qaytadan o'qiganday, takrorlaydi. Tarixda bunday kishilar bor va ular bizning oramizda qam yo'q emas. Muqimi shundaki, ana shu fenomenal xotirani shaxs va jamiyat manfaatiga mos tarzda unumli ishlata biliшdir.

Esda saqlangan ma'lumotni xotiradan chiharib olib, qayta tiklash qam muqim muammo. Chunki ko'pincha biz xotiramizda kechagina o'qigan yoki yaqindagina o'qituvchimiz aytib bergen ma'lumotning borligini bilamiz-u, lekin kerak vaqtida uni esga tushira olmaymiz. Ma'lumotni xotiradan chaqirib olish omillariga quyidagilar kiradi:

Ma'mulotning anglanganligi. Biz o'zimiz to'la anglagan, tushungan narsalarni osonroq esga tushiramiz. Masalan, alfavitni juda oson esga tushiramiz, yoki 1, 2, 3, 4 va qakozo tartibli sonlarni bir ko'rgandan so'ng u milliongacha bo'lsa qam esga tushirishimiz sirayam qiyin emas. Lekin shu sonlardan bor yo'qi 7 - 8 tasini teskari yoki aralash tartibda yozilgan bo'lsa, ularni esga tushirish ancha mushkul bo'ladi. "Psixologiya" yozuvini esga tushirish juda oson, lekin "i p i o x o ya s l g" harflari to'plami aynan o'sha harflardan iborat bo'lsa qam sira esga tushira olmaymiz. Demak, materialni yaxshilab esda saqlash va esga tushirish uchun uni tushunish va anglash kerak. Mazmunini va mohiyatini tushungan xolda iloji bo'lsa, o'zimizdagি qiziqishlarga boqlay olishimiz kerak.

Kutilmagan ma'lumot. Kutilmaganda paydo bo'lgan yangi va yaxshi ma'lumot qam yaxshi esga tushadi. Masalan, sonlar qatorida berilgan bitta harf, yoki aksincha, harflar orasidagi bitta son, uzun jumlalar orasida paydo bo'lgan qisqa jumla esga tezroq va aniqroq tushadi. Buning oddiy sababi - biz kutilmaganda paydo bo'lgan ma'lumot yoki narsaga qayratlanamiz, jonli emotsiyalar bilan javob beramiz, bu esa yaxshi eslab qolishga va kerak bo'lganda, yorqin tiklashga asosdir.

Ma'lumotning mazmun yoki shakl jihatdan bir - biriga yaqinligi. Masalan, agar ko'plab bir - biriga boqliq bo'lмаган so'zlar orasida "erkak" va "ayol" so'zları paydo bo'lgan bo'lsa, bittasining esga tushirilishi ikkinchisining qam esda tiklanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun qam o'quv rejasiga kiritilgan barcha fanlar shunday birin-ketinlikda beriladiki, birini o'zlashtirish ikkinchisining qam o'zlashtirilishi, bir - birini to'ldirishga xizmat qilsin.

Esda saqlash vaqt bilan esga tushirish vaqt o'rtaсидаги farq. Odamda berilgan ma'lumotni idrok qilish va shu orqali esda saqlash vaqt qanchalik ko'p bo'lsa, esga tushirish qam osonroq bo'ladi. Shuning uchun qam uzoq muddatli xotirada saqlanadigan informatsiya uzoq vaqt mobaynida, ko'pincha bir necha marta qaytarib beriladi, qisqa muddatlida esa bir marta, qisqa fursatda beriladi va shu narsa esga tushirish kerak bo'lganda, tiklanmaydi. Masalan, biror tekstni kompyuterga kiritish uchun o'rtoqingizga berib, keyin nimalarni kiritganini so'rang. Javob aniq: "Esimda yo'q". Ya'ni ma'lumotning umumiyo мазмуни yodda qolsa qam, asosiy tushunchalar va mohiyat esda qolmaydi.

Shunday qilib, xotira faol jarayon bo'lib, u shaxsning u yoki bu turli ma'lumotlar

bilan ishslash malakasiga, unga munosabatiga, materialning qimmatini tasavvur qilishiga bevosita boqliq bo'ladi. Eng xarakterli narsa shuki, inson faqat eshitgan ma'lumotining 10 foizini, eshitgan va ko'rgan narsasining 50 foizgachasini, o'zi faol bajargan ishlarining deyarli 90 foizini yodda saqlaydi. Bu ko'plab psixologik eksperimentlarda isbot qilingan. Shaxsning o'zi o'ylab topib, o'zi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi. Bu xodisa psixologiyada generatsiya effekti deb ataladi. Agar talaba yoki o'quvchi qam o'zi biror teoremani mustaqil ravishda isbot qilgan bo'lsa, yoki biror xulosaga mustaqil ravishda kelolgan bo'lsa, o'qituvchi tushuntirgan xodisaga yaqin narsa to'g'risida o'rtoqlariga so'zlab bergen bo'lsa, albatta uni xoxlagan paytda osongina esga tushiradi. Shuning uchun qam oxirgi paytlarda o'yin metodlari, munozara metodlaridan o'quv jarayonida qam keng foydalanilmoqda. Xattoki, kattalarni qisqa fursatda o'qitish va malakalarini oshirishda qam turli xil amaliy o'yinlardan, ijtimoiy psixologik treninglardan foydalanishning ma'nosi qam shunda - yaxshi va tez eslab qolish qamda samarali esga tushirish. Iqtisodiy o'quvlarda turli xil "keys stadi"larni taxlil qilish va o'z nuqtai nazaricha maqbul xarakat shakllari harorlar qabul qilish qam mutaxassislar malakasini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda xotiraning sakkiz qonunini eslab qo'yishni taklif etamiz:
Anglanganlik qonuni. Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni mustaqkam xotirada muqrlagan bo'lamic.

qiziqish qonuni. Anatol Frans: "Bilimlarni yaxshi qazm qilish uchun uni ishtaqa bilan yutish kerak" deganda, albatta, materialga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz, va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.

Ilgarigi bilimlar qonuni. Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday qis qilsangiz, demak, siz ilgarigi tajribangiz etishmaganligidan uni yaxshi o'zlashtira olmaganligingizni qis qilishingiz mumkin. Demak, eski bilimlar qam tajribaga aylangandagina, yangilariga zamin bo'la oladi.

Eslab qolishga tayyorlik qonuni. Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lqusi aqliy ishga qanday qozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz. Masalan, fizika o'qituvchisining barcha darslari sizga doimo ma'qul bo'lgan bo'lsa, Siz: "Bugun qam yangi narsa o'rganib chiqaman", deb o'zingizni ishontirasiz va oqibatda natija qam yaxshi bo'ladi. Yoki vaqtga nisbatan tayyorlik qam shunday. "Bir amallab imtiyon topshirsam, keyin qutulaman", deb darsga tayyorlangan bo'lsangiz, imtiyon tugagach, go'yoki miyangizni birov "yuvib qo'yganday" tasavvur qosil bo'ladi. Agar materialni mutaxassis bo'lishim uchun juda kerak, deb umringiz oxirigacha muqimligini anglasangiz, u narsa xotirada muqim saqlanadi.

Assotsiatsiyalar qonuni. Bu qonun haqida eramizdan avval Arastu qam yozgan edi. qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtida shakllangan tasavvurlar xotirada qam yonma-yon bo'ladi. Masalan, ayni konkret xona o'sha erda ro'y bergan xodisalarni qam eslatadi.

Birin - ketinlik qonuni. Xarflarni alfavitdagi tartibida yoddan aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo'lganidek, xotirada qam ma'lumotlarni ma'lum tartibda

joylashtirishga va kerak bo'lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

Kuchli taassurotlar qonuni. Eslab qolinadigan narsa to'g'risidagi birinchi taassurot qanchalik kuchli bo'lsa, unga aloqador obraz qam shunchalik yorqin bo'ladi. Bundan tashhari, siz uchun ahamiyatli va jozibali ma'lumotlar oqimida eslanayotgan material qam yaxshi esga tushiriladi.

Tormozlanish qonuni. har qanday muayyan ma'lumot o'zidan oldingi ma'lumotni tormozlaydi. Shuning uchun uning o'chib ketmasligi uchun yangini esda saqlashdan avval mustaqkamlash choralarini ko'rishingiz kerak.

Demak, yaxshi kuchli bilimlarga ega bo'lish uchun har bir predmet yoki fanning mavzularini o'ziga xos tarzda yoqtira olish va xotirada saqlash uslublarini ishlab chiqishingiz kerak ekan. Lekin albatta, matematika fanidan keyin fizikani, tarixdan keyin adabiyot fanini, she'r yodlashni uyqu oldidan amalga oshirmaslikni maslaqt beramiz.

Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati. Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'ladi. Aks xolda u eslab qolmaydi qam, keyingi safar analogik ob'ekt bilan to'qnash kelganda, unga diqqatini haratmaydi qam, figura fonga aylanib qolaveradi. Ya'ni, biz ko'rgan, eshitgan , xis qilgan narsalarimizning barchasi ma'noli, kerak bo'lsa, ma'nili bo'lishini xoqlaymiz. Shunisi xarakterlik, ana shunday narsa va qodisalarga biz tomonidan beriladigan ma'no har bir aloqida shaxs tomonidan turlicha idrok qilinadi. Masalan, olim uchun har qanday kitob - qayotining ma'nosi bo'lsa, deqqon uchun er va undan olinadigan qosil - ahamiyatli qisoblanadi. xattoki, bitta narsaning o'zi turli odamlar uchun turli qil ma'no va mazmun kasb etadi. O'sha kitob misolini oladigan bo'lsak, kitob industriyasi bilan shuqullanuvchi muxandis uchun - ishlab chiharish maqsuloti, kitob do'konni sotuvchisi uchun - tovar - maqsulot, o'quvchi uchun - ilm manbai, muallif olim uchun - ijodining mevasi, eng qimmatli narsadir. har bir aloqida narsaga bo'lgan munosabatimiz uning biz uchun qadr - qimmatiga bevosita ta'sir etadi, u goq ijobiy, goq salbiy bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qam biz narsa va xodisalarga tanlab munosabatda bo'lamiz. Tilshunoslikni kasb etib tanlagan talaba uchun kibernetik modellashtirishga baqishlangan ma'ruza qanchalik zerikarliday tuyulsa, iqtisodchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlar uchun pul, foyda va daromad olish yo'llari haqidagi ma'lumotlar shunchalik ahamiyatli, oddiy so'zning morfologik taxlili - shunchalik befarqlik xolatini keltirib chiharadi. Demak, bizning dunyoni, uning sir - asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va xodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izqor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi. Tafakkur - inson ongingin bilish ob'ektlari qisoblanmish narsa va xodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavqumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o'zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan chetda bo'lgan, u asosan faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan masala qisoblangan. Psixologiya ilmining otaxoni qisoblanmish nemis olimi Vilgelm Vundt qam psixologiyani ikkiga bo'lib - fiziologik psixologiya (eksperimental yo'l bilan bilish

jarayonlarini o'rganuvchi fan) va xalqlar psixologiyasi qismlariga bo'lib, oxirgi psixologiyaning tarkibiga nutq va tafakkur psixologiyasini qam kiritgan va uni eksperimental tarzda o'rganib bo'lmaydi, ularni tushuntirish mumkin xolos deb qisoblagan. Bu xulosalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo'lsa qam shuni ta'kildash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari - bu bilish jarayonlari;

ikkinchidan, ular qam shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli;

uchinchidan, bu jarayonlar qam eksperimental psixologiya tomonidan o'rganiladi; to'rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliv va yuqori darajadagi shaklidir.

Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosita aks ettirish bo'lmay, narsalar va ularning xossalari ular yo'q paytda qam aks ettirishga imkon beradi. Masalan, Afrikaning subtropik xududlari to'g'risida gap ketganda, umrida biror marta Afrikaga bormagan odam qam subtropiklik xossasini b i l g a n i uchun qam ushbu axborotni tushunib, uni qabul qila oladi. Sinov paytida talaba kecha o'qigan, laboratoriya sharoitida sinab ko'rgan qonuniyatlar xususida xuddi ro'parasida namoyon bo'layotganday, obrazli qilib gapirib berishi, ro'y bergen xodisalarни yana formulalar va statistik qisob - kitoblar vositasida isbot qilib berishi qam mumkin. Bu operatsiyalarning asosida tafakkur jarayonlari yotadi.

Tafakkur qilishimizni ta'minlovchi organ - bu bizning miyamiz. Barcha xisob - kitob ishlari - eng elementar xarakatlarni rejalahtirishdan tortib, murakkab mavqum teoremalarni isbot qilishga haratilgan operatsiyalar miyada sodir bo'ladi. Shuning uchun qam juda charchab turgan paytda odamdan biror qiyinroq masala xususida fikr bildirishini so'rasangiz, "qozir boshim oqrib turibdi, juda charchaganman, biroz o'zimga kelay, keyin fikrlashamiz", deb javob beradi. Demak, miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o'zaro uzviy boqliq ekan. Miyamizning fikrlash qobiliyati va imkoniyatlari shunchalik salmoqliki, ayrim olimlarning fikricha, uning ishlash qonunlari qozir biz ishlatajotgan kompyuterlar emas, yana 100-200 yillardan keyin paydo bo'ladigan murakkab, o'ta "aqlli" kompyuterlar faoliyatiga yaqin ekan.

Kallamizga kelgan barcha o'y - qayollar - bu fikrlardir. Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, har on, har daqiqada odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularni tartibga solish, keragiga diqqatni haratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni echish - fikrlash jarayonidir.

Fikrlash jarayoni aslida ma'lum bir masala, muammo, jumboqni qal qilish kerak bo'lganda paydo bo'ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta echimni berishi shart, aks xolda u boshqa jarayonga - qayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin. Fikr, qoya, aniq echim bo'limganda, inson miyasining borliqdagi narsa va xodisalar mohiyatini aks ettirishi qayol deb ataladi. Shuning uchun qam do'stlar davrasida ba'zan muammo xususida tortishuv bo'lib qolganda, aniq bilimi yoki qoyasi yo'qligi tufayli kallasiga kelgan narsani aytgan bolaga harab "Juda olib ochishga ustasan-da, qayolparast" deyishadi.

Shunday qilib, muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko'raylik. Sizga mixlar solingan bir karton quticha va ikkita

sham, bolqacha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o'rnatib, yoqib qo'yish kerak. Kim qanday echadiq Albatta, birdaniga to'g'ri echimga kelish qiyin. Agar qutichani bo'shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka qoqish mumkinligi to'g'risida fikr kallaga kelmaguncha, echimni topish qiyin. Ayni shu masala ikki xil shart bilan berilgan: bittasida quticha mixlar bilan to'la deyilgan, ikkinchisida quticha bo'sh deb berilgan. Ikkinchchi xolatda bolalar uning echimiga tezroq kelishgan.

Psixologlarning fikricha, har qanday masalani echish mobaynida odam uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilsagina echimga kelarkan. Agar idrok bilan boqlaydigan bo'lsak, figura fonga, fon esa figuraga aylanadi, ularning o'rirlari almashadi va qakozo. Bundagi individual farq shundaki, ba'zi bolalar echimga to'g'ridan - to'g'ri figura asosida keladi, boshqalar esa bir necha echimning variantlarini ko'z oldiga keltirib, so'ng bir harorga keladi. Kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir juda sekin. Shuning uchun qam test echish jarayonida yonma - yon o'tirgan ikki bola bir xil echimni belgilaydi, lekin o'sha echimga kelish yo'llari har birida o'ziga xos bo'ladi. Aynan shu jarayonning qanday kechishini tafakkur psixologiyasi o'rganadi. Muammoning echimi ba'zan birdan, yorqin yulduzday yarq etib paydo bo'ladi. Bunday psixologik xolat psixologiyada insayt - oydinlashuv deb ataladi. Odam qachon ana shunday fikrlarda tiniqlik, insayt paydo bo'lganini o'zi qam bilmaydi. Eng iqtidorli, zukko olimlar qam o'z fikr yuritish qonuniyatlariga e'tibor berib, yangi qoya qachon, qanday yo'l bilan paydo bo'lganiga javob topolmaganlar. Xattoki, ba'zan shunday qam bo'ladiki, yangilik kashf etgan olim o'zining fikri naqadar noyob ekanligini qam anglash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, qolaversa, kashfiyot go'yoki uniki emasday, qaerdan kelib qolaganini qam tushunmaydi. Shuning uchun qam ko'plab genial kashfiyotlarning qaqiqiy qadr - qimmati muallif o'tib ketgandan keyin tarix tomonidan baqolanadi. Xuddi shunday qadrga ega bo'lgan kashfiyotlar yurtimizda yashab o'tgan yuzlab allomalar ijodiga taalluqli. Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobi, Al- Farqoni, Xorazmiy, Zamashhariy kabi allomalar o'zları ijod qilgan paytlarida yaratgan qoyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o'lmas ekanligini keyingi avlod, butun bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. R. Dekartning kallasiga analitik geometriya qoyasi kelganda, o'zida yo'q xursand bo'lgan va cho'kkalab, yiqlab shu fikrni unga ato etgan Xudoga sajda qilgan ekan. Darqaqiqat, miyadagi tiniqlik, oydinlashuv avvalo Olloqning inoyati, qolaversa, o'sha fikr egasining mashaqqatli meqnati, tinimsiz ilmlar dunyosida to'kkан zaqmatli terlari evaziga ro'y beradi. Umuman yangiliklar ochish, ijod qilishga aloqador tafakkur turi uning eng ahamiyatli va shu bilan birga eng qiyin turidir. Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashf qilishni xoqlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon, qanday sharoitda, qanday yo'l bilan uni ochishi mumkinligini o'zi qam bilmaydi. Shu o'rinda akademik Kedrovning Mendeleev davriy jadvalini kashf qilganligi xususidagi esdaliklari juda o'rinli. Olim uzoq vaqt mobaynida barcha kimyoviy elementlarni ma'lum qonuniyat asosida jadvalga tushirishni o'ylab yurgan. "Kallamga kelyapti-yu, uni ko'rolmayapman", deb tashvishlanardi olim. Kunlardan bir kun u juda toliqib, yozuv stoli ustida uxlab qolganda, tushida davriy jadvalni "ko'rgan". Xursand bo'lib ketib, uyqongan zaqoti moddalarni jadvalga joylashtira boshlagan. Tushdag'i ishi bilan o'ngidagi

ishining farqi shu bo'lganki, tushida engil moddalar pastda joylashgan bo'lgan, Mendeleev ularni o'ngida "to'g'rilib" chiqqan. Bu qam o'sha insaytga bir misol. Tafakkurning turlari. Insonning fikrlash jarayoni tahlil qilinganda, uning qanday shakllarda kechishi ahamiyatli bo'lib, bu uning turlari va shunga ko'ra fikrlashdagi individuallik masalasidir. 5- jadvalda tafakkurning turli mezonlar asosidagi klassifikatsiyasi keltirilgan.

Jadval - 1

Tafakkur turlari

Shakliga ko'ra

ko'rgazmali xarakat

ko'rgazmali obrazli

mantiqiy

Ko'rildigan masalaning xarakteriga ko'ra

nazariy

amaliy

ijodiylik elementiga ko'ra

konvergent

divergent

yangiligi va noyobligiga ko'ra

reproduktiv

produktiv (ijodiy)

Ko'rgazmali - xarakat tafakkurining xususiyati shundaki, u qam odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan paytdagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi. Ko'rgazmali - obrazli tafakkur esa ko'rgan - kechirgan narsalar va xodisalarining konkret obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan choqda ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir. Mantiqiy tafakkur - bu mavqum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, qoya va tushunchalarga tayangan xolda bevosita idrokimiz doirasida bo'limgan narsalar yuzasidan chihargan xukmlarimiz, muloqazalarimiz bu tafakkurga misol bo'la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab xodisalarini falsafiy o'rganish faqat mavqum, abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo'ladi.

Fikrlashimizning yana bir turi reproduktiv bo'lib, uning mohiyati - ko'rgan - bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosda fikrlashga asoslanadi. Undan farqli produktiv yoki ijodiy tafakkur - fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Shunga boqliq bo'lgan konvergent fikrlash masalaning echimi faqat bitta bo'lgandagi fikrlashni nazarda tutsa, divergent tafakkur - fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta echimlar paydo bo'lishini taqozo etadi. Aynan ana shunday ijodiy tafakkur divergent shaklda bo'lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo'ladi. Fikrning

kashf etish, yangilik yaratishga haratilgan faoliyati ba'zan uning kreativlik sifati bilan boqlab tushuntiriladi. Kreativlilik - shunday xislatki, u go'yoki yo'q joyda bor qiladi, ya'ni oddiygina, jo'ngina narsalarga boshqacha , birovlarnikiga o'qshamagan yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, uchta so'z berilgan - "qalam", "ko'l", "ayiq". Uchasini qo'shib, yangi jumlalar tuzish kerak . har kim o'zidagi kreativlik darajasiga ko'ra turli xil jumlalar tuzsa bo'ladi, masalan, "Bola qalamni olib, ko'lda cho'milayotgan ayiq rasmini chizdi". Yoki "Terak qalamchalari ekib chiqilgan ko'l yoqasida bir ayiq bolasini cho'miltirardi". Shunga o'qshash ko'plab jumlalar tuzish mumkin.

Mashqur olim K. Yung insonlarni fikrlashlariga ko'ra asosan ikki toifaga bo'lган edi:

Intuitiv tiplilar. Bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha xissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha qam o'ng yarim sharlar faoliyati chapnikidan ustunroq bo'ladi. Ko'rib, xis qilib, yorqin emotsiyal munosabat shakllantirilmaguncha, bunday odamlar biror xususda fikrlarini bayon eta olmaydilar.

Fikrlovchi tiplar. Bunday kishilarda doimo mantiq, muloqaza xissiyotlardan ustun bo'ladi va miyasining chap tomoni o'ngiga nisbatan dominanta(ustun) qisoblanadi. Bundaylar gapira boshlashsa, ko'pincha, "Faysasuf bo'lib ket-e", deb qam qo'yishadi. Chunki ular o'zlarigacha bo'lган bilimlar, mantiqiy fikrlash borasidagi yutuqlarga tayanib, doimo to'g'ri gaphirishga, doimo fikrlarini mantiqan asoslash - argumentatsiya qilishga harakat qiladilar. Aniq va texnika, tibbiyat fanlari bilan shuqullanuvchilarda ana shu tafakkur tipiga moyillik va psixologik qozirlilik bo'lsa, ular o'z kasblari borasida juda yaxshi natijalarga erishadilar. Ulardan farqli birinchi toifa vakillaridan yaxshi yozuvchilar, shoirlar, tilshunoslar, psixologlar etishib chiqadi.

Tafakkur shakllari va operatsiyalari. Tafakkur qilish shakllari yoki formasiga tushunchalar, xukmlar va xulosa chiharish kiradi.

Tushunchalar - tafakkurning shunday shakli, unda narsa va xodisalarga xos bo'lган eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Ular umumiy va juz'iy, konkret yoki mavqum bo'lishi mumkin. Masalan, "ong" tushunchasini oladigan bo'lsak, uning eng muqim va boshqa tushunchalardan farq qiladigan jihatlarini ajratishimiz kerak : faqat insonga xoslik, oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmi ekanligi va xakozo.

Xukmlar - atrofimizdagи narsalar va xodisalar o'rtasidagi boqliqlikni aks ettiradi. Masalan, "Inson ongli mavjudot" degan xukm - fikr "odam, inson", "ong" va "mavjudot" tushunchalari o'rtasidagi boqliqlikni ifodalab turibdi. Ana shunday xukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko'p ishlatiladi va ular tabiatan turli boqliklarlari yo tasdiqlaydi, yoki inkor qiladi, rost yoki yolqon bo'ladi

Mustaqil fikrlash - soqlom ma'naviyatning mezoni sifatida. Tafakkurni rivojlantirish. Biz yuqorida tafakkurni individual xususiyatlari va ushbu jarayonga xos bo'lган umumiy qonuniyatlarni o'rgandik. Lekin aslida maqsad shundayki, har bir shaxs o'zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonini bilgan qolda uni o'stirish yo'llarini bilishi kerak. Oxirgi yillarda psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, fikrlash jarayonlarini guruq sharoitida, dars paytida qam o'stirish va bunga qisqa yo'llar bilan erishish mumkin

ekan. Ularning fikricha, guruqdagi qamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samaraliroq qiladi.

Ana shunday samara beruvchi metodikalardan biri "breynstorming" deb atalib, uning luqaviy ma'nosi "miyani zabit etish"dir ("mozgovaya ataka" ruscha - "brain storming" ingl.). Uni o'tkazish quyidagi tamoyillarga asoslangan:

Ba'zi intellektual masalalarni echishda bitta echim bilan cheklanib bo'lmaydi va shu maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruqi tashkil etiladi va bu jarayonda "gruppaviy effekt" bo'lishi kutiladi. Guruq ishi tez va optimal harorlar qabul qilishga haratilgan bo'ladi va bunda aloqida ayrim individual harorlarga ta'sirlanishga yo'l qo'yilmaydi.

Guruqga shunday kimsalar kiritiladiki, ular bir - birlaridan fikrlash uslublarining noyobligi bilan farq qiladilar. Masalan, kimdadir mantiqiylik ustun, kimdir-kreaktiv, kimdir - tanqidchi va shunga o'xshash.

Guruqda shunday ijodiylik ruqi bo'lishi kerakki, har kim xoqlagan fikrini bemalol aytaveradi, u yoki bu fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin uning egasi tanqid qilinmaydi. Bunday sharoitda o'rtacha intellektual darajaga ega bo'lgan shaxs qam shunday fikrlar izqor qila boshlaydiki, ular aloqida qolgan paytida sira qam miyaga kelmagan bo'lardi.

Bu jarayon oliv o'quv yurtlarida darslarda qam qo'llanilishi mumkin, faqat uning yuqoridaq tamoyillari inobatga olinishi va guruqda o'zaro qamjihatlik muqiti bo'lishi kerak.

Mavzu yuzasidan tayanch so'zlar:

Pertseptsiya, idrok, xotira, sezgi, diqqat, assotsiatsiya, konstantlik, tafakkur, insayt, konvergent va divergent tafakkur, mantiq, erkin fikrlash, nostonart fikr.
Nazorat savollari.

Bilish jarayonlariga umumiy ta'rif bering.

Diqqatning asosiy ikki turi qaysilarq

Sezgi a'zolari kishiga nimaning imkonini beradiq

Xotira va shaxs tajribasining boyligi xususiyatlari.

Tafakkur turlari.

6. Tafakkur shakllari va operatsiyalarini izoqlang.

Adabiyotlar ro'yxati:

Bruner D.S. Psixologiya poznaniya.- M., 1977

Vertgeymer M. Produktivnoe mo'shlenie. - M., 1987

Vo'gotskiy L.S. Razvitie vo'sshix psicheskix funktsiy. M., 1960

Granovskaya R.M. Elemento` prakticheskoy psixologii. SPb, 1997

Dyui D. Psixologiya i pedagogika mo'shleniya.- M., 1998

Emelyanov Yu.N. Aktivnoe sotsialno - psixologicheskoe obuchenie. - L., 1985

Nemov R.S. Psixologiya. - Kn.1. Osnovo` obqey psixologii.- M., 1994

Psixologiya . Uchebnik .- Pod red. A.Kro'lova, - M., 1998

Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testo`.- M., 1999

8- MAVZU. ShAXSNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Reja:

- 1.Individual -tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi.
- 2.Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi.
3. Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar.
4. Qobiliyatlarning psixologik strukturasi.
5. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir - biriga aynan o'qshash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo'y - basti bilan boshqa biror kimsaga o'xhashi mumkin, lekin fe'li, mijoz va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil insonlar bo'lmaydi. qattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda qam juda ko'p jihatdan aynan o'qshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyatsiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan.

Shaxs - qaytarilmas, u o'z sifatlari va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Shu o'rinda biz yuqorida ta'rif bergan shaxs tushunchasi bilan yonma - yon ishlatiladigan yana ikki tushunchaga izoq berish o'rinali deb qisoblaymiz. Bu - "individ" va "individuallik" tushunchalaridir. "Individ" tushunchasi umuman "odam" degan tushunchani to'ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomonidan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomonidan, o'ziga va o'ziga o'qshashlarga xos bo'lgan umumiyligi xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ - insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

"Individuallik" - yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlarini, temperamentini, xarakterini, irodaviy sifatlari, emotsiyalari, xulqiga xos motivatsiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o'tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallilikni ta'minlovchi kategoriyalardir. Uning ma'nosi shundaki, bo'y, eni, yoshi, sochining rangi, ko'z harashlari, barmoq xarakatlari va shunga o'xhash sifatlari bir xil bo'lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlarini, temperamentini, faoliyat motivatsiyasi va boshqalarga aloqador sifatlari majmui bir xil bo'lgan odamni topib bo'lmaydi. Ular - individualdir.

qobiliyatlar - shaxsdagi shunday individual, turqun sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagagi ko'rsatgichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

Temperament - insonning turli vaziyatlarda narsa, qodisa, xolatlar va insonlarning xatti-xarakatlariga nisbatan reaktsiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir.

Xarakter - shaxsning aloqida insonlar va insonlar guruqi, o'z - o'ziga, vaziyatlar, narsalar va qodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarini o'z ichiga oladi.

Irodaviy sifatlar - har birimizning o'z oldimizga maqsad qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni engishimizni ta'minlovchi ma'lum sifatlarimiz majmuini o'z ichiga oladi.

Emotsiyalar va motivatsiya esa atrofimizda sodir bo'layoutgan xodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning xatti-harakatlarini ruqan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni vaziyatlardagi real xolatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ustanovka - yuqoridagi barcha xususiyatlar kompleksiga ega insonning turli ijtimoiy vaziyatlardagi faoliyat va xarakatlarga ruxan qozirligi va munosabat bildirish uslubidan kelib chiqadigan chuqur ichki xolatidir.

Biz yuqorida sanab o'tgan individual psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta. Ular bizning jamiyatdagi o'rnimiz, obro' - e'tiborimiz, ishdagi va o'qishdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi qiyofamizni, kim ekanligimizni, kerak bo'lsa, o'zligimizni belgilaydi. Kim bilan qaerda uchrashmaylik, o'sha insonning bugungi xolati, kayfiyati, bizga va biz bildirayotgan fikrlarga munosabati, qamkorlikda ishslash tilak - istaklariga doimo e'tibor beramiz va bu masala biz uchun muqim bo'ladi. Xuddi shunday suqbatdosh qam suqbatning boshidanoq, bizni o'rgana boshlaydi. Chunki agar suqbatdoshlar bir - birlarini bilsalar birgalikdagi faoliyatni samarali tashkil etish va undan foyda olish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Shuning uchun qam ishda qam, dam olishga otlangan choqda qam, qaerda bo'lsa qam o'zimizga "qo'shni" tanlaganda uning inson sifatida qanday ekanligiga qiziqamiz. Agar suqbatdosh yoki sherik bizga tanish bo'lmasa, uni taniganlardan oldindan so'rab qam olamiz va bunda aynan uning nimaga qobilligi, fe'li, ishga, odamlarga munosabatini so'raymiz va xoqlaymizki, u to'g'risida "Juda xushfe'l, odamgir ..."kabi tasniflarni eshitgimiz keladi. Biror erga ishga kirayotgan paytda qam raqbar albatta o'ziga yaqin odamlardan yangi xodimning xarakterini, qobiliyatini va muqim narsalarga munosabatini albatta so'raydi va shu asosda suqbatga tayyorlanadi.

Demak, individual sifatlar bizning ongli qayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo'naltirilgan muqim predmet ekan. Chunki aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimsidir juda chaqqon, tez ish qiladi, lekin sifatsiz. Kimsidir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimsidir ishga yuzaki harab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudi va e'tiqodi bilan munosabatda bo'lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi. Shuning uchun qam individuallikning faoliyat va muloqotdagi samarasini inobatga olib, eng muqim individual - psixologik xususiyatlarni aloqida o'rganamiz.

Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi. Odamlarning o'quv, meqnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi qam qilgan har bir xarakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Munozaraning qanday yakunlanishidan qat'iy nazar, ya'ni unda fikrlar kesishmasligi qam mumkin yoki ularda ma'lum uyqunlik bo'lishi kuzatiladi, bunda nima bo'lganda qam baxsning mazmuni shaxsning ijtimoiy tasavvurlari va harashlarida mustaqam o'rnashadi qamda xotirada qoladi. Baxsli munozaraning predmeti yoki ob'ekti sifatida maxsus tarzda tanlab olingan muammo yoki amaliy faoliyatda uchraydigan turli xodisalar va harama-harshi qoyalar qabul qilinishi mumkin. Masalan, 50-yillarda ingliz shifokorlari Maykl va Enid Bamintlar psixoterapevtlar seminarini tashkil etib, munozara va muxokamaning amaliy ahamiyatini isbotlashgan. Ular har kuni klinikadagi vrachlarning tuplanishlari va kundalik amaliyotlarida ruy bergen xodisalar, faktlar haqida ma'lumotlar berib, keyin bildirilgan fikrlar o'zaro muxokama qilingan. Shu tufayli turli shifokorlar tajribasida tabiiy xisoblangan «o'zbilarmonchilik» ning oldi olingan va qozirgacha saqlanib qolgan «5-daqiqalik» shifokorlar yiqini paydo bo'lgan. Shifokorlar o'zaro fikr almashinislari tufayli ma'lum umumiyl foydali harorlarga kelishlari tibbiyot ilmi va amaliyotining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

har qanday sharoitda qam shaxsning o'z boshidan kechirganlarini o'zgalarga aytalishi va boshqa fikrlarni qabul qila olishi katta ijtimoiy ahamiyatga ega. O'sha harb mamlakatlarda keng tarqalgan «T-gurux»lar metodi qam aynan turli qayotiy kazuslarni tahlil qilish vositasida fikrlar uyqunligiga erishish va shaxsni tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Munozara metodlarining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, ular har bir shaxsning o'z nuqtai nazarini tahlil qilishga imkon yaratib, undagi tashabbuskorlik, qamda o'z aqliy potentsiallaridan to'liq foydalanish imkoniyatini beradi. Ya'ni ushbu turkum metodlarining vazifalari qam uning ahamiyatli maqsadlaridan qilib chiqadi: a.) munozara qatnashchilarini real vaziyatlarini tahlil qilishga, asosiy, muxim narsani nomuxim narsadan ajratishga va muammoni anglashga o'rgatadi. b.) muammmoga taaluqli rang-barang qirralarni ajratish, ular moxiyatini anglash imkoniyatini yaratadi. g.) muammoning turli muqobil echimlari bo'lishi

mumkinligini namoyish qiladi. Ayniqsa, axloqiy-ma'naviy mavzulardagi mummolarni xal qilishda munozaraning roli katta. Bunday sharoitda baxslashuvchilarning etuklik darajalari, axloqiy qadriyatlarni anglash darajalari katta ahamiyatga egadir. Axloqiy-ma'naviy masalalar yuzasidan munozarani tashkil etuvchi shaxsga aloqida talablar qo'yilishini ta'kidlash kerak. Chunki u baxslashuvchilarga xech qanday tazyiq ko'rsatilmasligi, har bir shaxsning erkin fikr bayon etishiga yo'l qo'ygan qolda ular fikrlarining tamoman zidlashib ketishiga yo'l qo'ymasligi, munozaradan kelib chiqadigan xulosani va harorni guruxning o'ziga xavola qilish lozimligini unutmasligi zarur. Bu usul maktablarda, turli bilim maskanlarida, maxalla qo'mitalari shu faoliyatda, turli maslaxat shaxobchalari, o'spirinlar tarbiyasi borasida keng qo'llanishi mumkin.

3.2 Kichik va katta guruxlarda munozaralarni tashkil etish qoidalari.

«Munozara» yoki «baxs» so'zlarining moxiyati shundaki, ular doimo kishilar guruxini anglatadi, ya'ni har qanday baxs yoki munozara guruxda mavjud bo'ladi. Lekin ijtimoiy psixologiyada (asosan) guruxlarning ikki turi bo'lib, ulardagi shaxslar soni va guruxi xajmiga ko'ra, katta va kichik gurux turlariga ajratiladi. Ijtimoiy psixologik treninglar o'tkaziladigan maxsus guruxlar «T-guruxlar» deb yuritiladi. Lekin an'anaviy «T-gurux»lar kishilar sonining ozligi va bevosita muloqot sharoitlarining etarli ekanligi bilan tavsiflanadi. Shunday bo'lishiga haramay, ko'pincha real amaliyotda psixolog shunday guruxlar bilan ishlashiga to'g'ri keladiki, undagi odamlar soni belgilangandan ko'proq bo'ladi. Masalan: o'rta maktablardagi sinflar, o'quv yurtlaridagi akademik guruxlar shular jumlasidandir. Shuning uchun qam biz bevosita kompakt 8-10 kishilik kichik guruxlarda qamda odamlarning soni 20-30 kishi bo'lgan guruxlarda munozaralarni uyushtirishning moxiyati haqida aloqida to'xtalib o'tamiz. Shunday qilib T-guruxlarda munozaralarni uyushtirilgan munozaralarning erkin mavzusi, yo'naltirilgan va aniq stsenariyli disput turlari mavjud bo'lib, bu tanlangan va munozara guruxlarining muloqot tajribasiga boqliqdir «disput» so'zining luqaviy ma'nosи «fikrlayapman» «tortishyapman» degan ma'noni bildiradi. Kichik guruxlardagi munozaradagi mavzu xususiyatiga harab, har birining o'z fikr-muloxazalarini oxirigacha bayon etish imkoniyatlarining borligidir. Bunday guruxda boshlovchi qam qatorda o'tirib, mavzuning echimi batamom xal bo'limguncha faol muloqotlarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Lekin asosiy rol guruxning a'zolariga yuklanganligi va bevosita ajralib chiqkan norasmiy lider asosiy baxs yurituvchi bo'lishi mumkinligini unutmasligi zarur. Bunday gurunglar turli sharoitda, ko'pincha baxs ishtirokchilari uchun tabiiy sharoitlarda o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar T-gurux odatdagidan kattaroq xajmda (masalan 30 kishigacha) bo'lsa, unda munozarani uyushtirishning o'ziga xos tomoni bor. Bu qolda baxs guruxi shartli ravishda a'zolarga aniq mavqelarini bayon qilingan qolda uchga bo'linadi. Birinchi gurux – «fikrlarni jamlovchilar»-generatorlar guruxi deyiladi: ikkinchi-«tanqidchilar» va uchinchi gurux-«fikrlarni tezlatuvchilar-katalizatorlar» deb ataladi. har bir ajratilgan guruxning o'ziga xos funktsiyalari bor «generatorlar» o'rtaga tashlangan muammo yoki baxs mavzusi bo'yicha o'zlaridagi barcha fikrlarni o'rtaga xolis tashlaydilar. Gurux a'zolaridan biri lider-ularni

umumlashtirib bayon etadi. So'ogra o'yinga «tanqidchilar» kirishadi. Ularning vazifasi – eshitgan fikrlariga tanqidiy nuqtai nazardan ular ichidagi «magzini» va «puchak» fikrlarni saralash. Shundan keyin vaziyatga harab, yana so'z «generatorlar»ga yoki «katalizatorlar»ga berilishi mumkin. Bildirilgan fikr va takliflarda mabodo xisobga olinmay qolgan jihatlar yoki noo'rin fikr bo'lsa yoki moxiyat shu mavzuga aloqador bo'lган, Lekin ikkala tomon xisobga olmagan biror jihat aniqlansa, tomonlar diqqatini haratish, kerak bo'lsa baxsni davom ettirishga ruxsat berish va uni yakun qilish taqozo qilinsa, ikkala guruxning o'yiniga baqo bergen qolda munozarani to'xtatish –«katalizator»larning vazifasidir. Ular ko'pincha ikkala gurux uchun xolis arbitrlar – «xakamlar» rolini qam o'ynashlari mumkin.

Maktabda bir sinf doirasida yoki talabalar guruxida axloqiy-ma'naviy mavzuda baxs uyuştirganda, yuqoridaq usulni qo'llash, imkoniyati bo'lsa, suxbatdoshlarni uchburchak-berk stol atrofiga toplash mumkin. Demak baxslashuvchilarning fazoviy joylashishlari qam bu o'rinda ma'lum ahamiyat kasb etadi. Katta guruxlarda baxs yoki munozara uyuştirilganda boshlovchining roli ayniqsa kattadir. Chunki u har bir guruxdagi tortishuvlar va fikr almashinuvlarning boshida turmoqi, kerak bo'lsa, ular faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirib turmoqi lozim. Kichik guruxdagidan farqli o'laroq, katta guruxlarda boshlovchi u yoki bu ichki guruxga yon bosmasligi yoki ularni o'zining shaxsiy fikriga majburan ergashtirmasligi kerak. Aks qolda, u o'zining faoliyati bilan boshqalar tashabbusiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va baxsning yo'nalishini bo'zib ko'yishi mumkin. Shuning uchun katta guruxlarda uyuştiriladigan munozaraning mavzusi oldindan tanlangan va unga boshlovchi ma'lum ma'noda tayyor bo'lishi shart.

3.3 Breynstroming va uni o'tkazish texnologiyasi.

Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, uning nomini rus tilida «mozgovaya ataka» inglizcha-«breynsroming» deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning aniq analogik tarjimasi yo'q, Lekin uni «miyaga xujum» yoki «fikrlar to'qnashushi» deb atash mumkin. Metodning psixologik moxiyati shundaki oddiy munozarada baxslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa baxslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa» aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa ko'proq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq bo'lgan sharoitlarda qo'l keladi. Ya'ni, bunda «erkin assotsiatsiyalar»ga yo'l beriladi va oxir oqibat guruxning o'zi ma'lum ratsional «maqizni» ajratib oladi. Bu usulni birinchi marta Amerikalik olim A. Olborn 30- yillardaek taklif etgan va yirik loyixalarni rejalshtirish va oldindan uning natijalarini bashorat qilishda ma'lum yutukqlarni qo'lga kiritgan edi. Lekin keyinchalik mutaxasislar uni faqat nostandard, o'ziga xos echimi bo'lgan vazifalarni muxokama qilgandagina qo'llash mumkin, degan fikrni bildira boshladilar. Biroq to'g'ri tashkil etilgan breynsromingning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

Jumlalar juda qisqa bo'lishi kerak, lekin ularni asoslanishi shart emas.
har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir.

Mantiqiy fikrdan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muximroq.

Fikr yoki bildirilgan qisqa muloxaza qayd etiladi.

Bildirilgan fikr yoki qoyalar u yoki bu ishtirokchiniki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular-muallifsizdir.

Fikr yoki yaxshi qoyalarni tanlash aloqida «tanqidchilar» yoki guruxning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi. Yuqoridagi gurux katta bo'lganda baxs uyuştirishda qam generatorlarga ushbu usulda imkon berish tajribada yaxshi natijalar beradi.

Breynstroming, ayniqsa 50-yillarda Amerika va Frantsiya davlatlarida turli texnologik muammolarni xal qilishda keng qo'llanilgan va uning natijalari ko'plab maqola va kitoblarda umumlashtirilgan. Lekin ommaviy qo'llashda ayrim tortishuvlar paydo bo'ldiki, ayniqsa yoshlar auditoriyasida uni ishlatishdagi noqulaylik borligi aniq edi. Ammo baribir, yuqorida ta'kidlanganidek kishilarni faol ijtimoiy psixologik muloqotga tayyorlash, nostonart muammolarni echish va odamni umuman guruxga ko'niktirish maqsadida undan foydalanish mumkin va bu jihatdan qator afzalliklari va tadbiqiy ahamiyati mavjud.

Tayanch iboralar:

Munozara, T-guruxlar, «generatorlar» «tanqidchilar» «katalizatorlar» Breynstorming.

Nazorat savollari:

Munozara usulini tadbiq etgan psixologlarning faoliyati haqida nimalarni bilasizq

Munozara usulining ijtimoiy psixologik ahamiyatini ko'rsating.

Munozara metodlarining asosiy vazifalarini ko'rsating.

Munozaralarni tashkil etishda qanday koidalarga rioya etish zarur.

Breynstormingni o'tkazish texnologiyasi qandayq

7 – Mavzu. O'yin metodlari va ularning ijtimoiy faollikni oshirishdagi roli.

Reja:

O'yin metodlarining klassifikatsiyasi va ularning psixologik mohiyati.

Rolli o'yinlarni tashkil etish texnologiyasi.

Rolli o'yinlar jarayoni va shakllari.

Ilmiy va ommabop adabiyotda «o'yin» tushunchasi keng ma'noda ishlatiladi. M: aktyorlar o'yini, bolalar o'yini, shaxmat o'yini va x.k. (strategik o'yinlar, qayol

yoki fantaziya o'yinlari). Ko'pgina psixologik tadqiqotlar aynan bolalar o'yinlariga baqishlangan. Rus psixologi D.B. Elkonin «Nima uchun bolalar o'ynadilarq» degan savolga to'laqonli javob topish maqsadida o'zining ko'p yillik ilmiy izlanishlarini «O'yin psixologiyasi» (Psixologiya igro') kitobida umumlashtirgan (1960). Unda muallif o'yinlar genezisi – kelib chiqishi, uning mohiyati, bola taraqqiyoti va shaxs shakllanishidagi o'rni va ahamiyatini yoritishga harakat qilgan. Bolalar, deb yozilgan kitobda, - o'yinda kattalarning ijtimoiy qulq-atvoriga taqlid qilish yo'li bilan ular faoliyatini qaytaradilar.

Yuqorida ta'kidlaganidek, o'yinlar kategoriyasi nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatiga qam xos. Bolalar va kattalar o'yinlarida qator umumiyliklar mavjud:

- a. ikkalasida qam rollar improvizitsiya qilinadi, boshqacha qilib aytganda qayotda bor bo'lgan u yoki bu harakatlar, qulq-atvor shakllari qaytariladi.
- b. o'yin faoliyatidagi vaziyatlar ikkala qolda qam shartlidir.
- v. o'yinda meqnat yoki boshqa turdag'i ijtimoiy faoliyatning eng muqim tomonlari qayta tiklanadi.
- g. tabiiylik, hissiylik-emotsional jihatlarining borligi kattalar va bolalar o'yinlariga xos bo'lgan jihatlaridir.

O'yinning eng muqim ahamiyati shundaki, unda tabiiylik sifati bo'lib, ayniqsa, bolalar o'yinida yaqqol seziladi, zero, ular unda o'zida ko'plab tabiiy eqtiyojlarni qondirishga harakat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ma'lum taraqqiyot bosqichida bolalar tinimsiz o'ynaydilar, undan charchamaydilar va bundan qech qachon ular o'z sherigiga ma'naviy ziyon etkazmaydi. Bu narsalar o'yinning shunday qirrasi bilan boqliqki, unda qayol, hissiyot jarayonlari yaqqol tafakkurdan ustun keladi.

Ijtimoiy psixologik ahamiyatga ega bo'lgan kattalar o'yini esa asosan 2 vazifani bajaradi:

ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash

zarur ijtimoiy ustakovkalarni shakllantirish lekin bunday o'yinlarning tabiiy bolalar o'yinidan farqli jihatlari qam bor:

- a. bolalar o'yinlarida ijtimoiy rol o'zlashtirilsa, kattalarnikida bu rol yanada mustaqkamlanadi, takomillashadi. M: bolalarning «meqmon-meqmon» o'yinlarida meqmon va mezbon harakatlariga xos bo'lgan asosiy qirralar o'zlashtirilib, taqlid asosida ko'nikmalar qosil qilinsa, kattalar shunga o'xshash «o'yinlarda» muomalaning eng mukammal va chiroyli jihatlarini mustaqkamlab davr madaniyatiga xos qulq-atvor shakllariga o'rganadilar.

- b. bolalar o'yinlaridagi rollar qayotiy vaziyatlarni umumlashtirgan qolda, umumiy tasavvurlar vositasida qaytarilsa, kattalarda bu narsa aniq vaziyatlar va yaqqol rollar vositasida amalga oshiriladi.

- v. bolalar o'yinlari ma'lum ma'noda stixiyali jarayon bo'lsa, kattalar o'yinida qayotiy qoidalar, normalar, me'yorlar ataylab tashkil qilinadi va unga maxsus nazoratchilar-murabbiylar raqbarlik qiladilar.

- g. bolalar tabiiy ravishda o'zları kirayotgan rolni hissiy boshdan kechirib, o'yinga kirishsalar, kattalar ko'proq u yoki bu rolga o'zini identifikatsiya qilib sun'iy ravishda kiradi.

- d. kattalar o'yini sifati va samaradorligi o'ynovchining qayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita boqliq bo'ladi, bu o'rinda onglilik, tashabbuskorlik va

eruditsiya, yaqqol omillarni umumlashtirish kabi sifatlar muqim rol o'ynaydi. Ijtimoiy psixologik bilimdonlikni oshirishga xizmat qiluvchi o'yinlar asosan 2 turga bo'linadi. Bu – operatsional o'yinlar va rolli o'yinlar.

Operatsional o'yinlar o'z mohiyati jihatdan, ya'ni ushbu faoliyat motivi, unda aqliy operatsiyalarning ishtiroki va xissiy ko'rinishi jihatidan muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga o'xshaydi. Lekin ayni tizimga tushirilmagan, spontan munozaradan farqli, unda o'yining umumiyligi stsenariysi bo'lib, oqibatda qabul qilinadigan harorlar ijtimoiy normalarga mos kelishi «to'g'ri» yoki «noto'g'riliq» amortilik belgilab qo'yildi. Shuning uchun qam bunday o'yinlarda qayot sinovlaridan o'tkazilgan ijtimoiy tajribaga asoslangan vaziyatlar ishlataladi. M: qozirda keng tarqalgan ishbilarmonlik o'yinlari (Delovo'e igro') yoki boshharuv o'yinlari shular jumlasiga kiradi. Agarda boshliqning xodimning qabul qilish vaziyati o'ynalayotgan bo'lsa unda boshharuv tajribasida ilgari yuz bergan bar nechta alternativ qulq shakllari oldindan kelishilgan qolda uynaladi va shular asosida o'yinga baqo beriladi. Chunki amaliy o'yinlarda shaxslararo bevosita munosabatlar nisbatan cheklangan bo'lib, ularda rasmiyatchilik elementlari ko'p bo'ladi.

Demak, amaliy o'yinlar quyidagi vazifalarni bajarish kerak:
harorlar qabul qilish bilan boqliq bo'lgan tipik qayotiy vaziyatlarni modellashtirish.

Professional faoliyatda uchraydigan qulq-atvor shakllari va muloqotning turli qirralarini ochib beradi.

Ijtimoiy qulqda mavjud bo'lgan yangi kirralar bo'yicha bashorat qiladi va professional faoliyatning yangi xususiyatlarini ochadi.

Ko'pchilik, o'yin metodlarini o'ylab topganlarning vatani Amerika deb o'ylaydi. Lekin aslida uni 1-marta amaliy faoliyatda ruslar – Rossiyada qo'llashgan. 1936 yilda hozirgi Sankt-Peterburg shaxridagi Ishlab chiharish Akademiyasi talabalari «Ishlab chiharish dasto'rining keskin o'zgarishi munosabati bilan sanoatni qayta ko'rish» mavzusidagi o'yinni «Krasniy tkach» nomli fabrikada dam olish kunlari o'tkazgan edilar. Uning natijalari keyinchalik ommaviy axborot vositalarida muxokama qilingan, Lekin o'sha paytda fan mutaxassislari bu usulning moxiyatini to'la tushinib, uni qo'llab-quvvatlamagan edilar. Shuning uchun qam ilmiy adabiyotlarda Amerikada tashkil etilgan «T-guruxlar» tajribasi ko'proq yoritilgan.

hozirgi kunga kelib, 200 dan ortik operatsional o'yinlarning standart dasturlari bo'lib, ular o'quv, ilmiy-tadqiqot, xalq xo'jaligi maqsadlarida ishlataladi.

har qanday operatsional o'yinni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish shart:

1. Ish o'yinlari ijodiy, professional tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun tashkilotchi muammoli vaziyat echimining, uning ijtimoiy moxiyatini trening maqsadiga mosligini tiklashi va xulosalarini ishlab chiharishga joriy etishi kerak.
2. Ishlab chiharish jarayonlari va professional faoliyatni modellashtirish va uni real turmush vaziyatiga yaqinlashtirib, imitatsiya qilishga erishish zarur.
3. Trening tarbiyaviy jihatlarini sof o'yining o'zidan yuqori qo'yish maqsadga muvofiq ekanligi.
4. O'yin qonun-qoidalar va normalarining barcha uchun tengligini doimo yodda

tutish lozim.

5. Maqsadga erishishning qator dialoglar va multiloglar (ko'p qirrali) tizimiga boqliqligi tamoyili.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillarga bo'ysungan qolda o'yinni tashkil etish mutaxassislarning o'qishi va ular professional sifatlarining takomillashuviga xizmat qiladi. har-bir ijtimoiy vaziyat bir necha marta qaytarib o'ynalgani uchun qam ishtirokchilarda bir vaqtning o'zida qam o'yinchi, qam kuzatuvchi bo'lish imkoniyatlari mavjud. Rolli o'yinlar keng tarqalgan o'zin metodlari bo'lib, ular moxiyat jihatdan ma'lum obrazlarga kirish o'sha obrazga xos bo'lgan xissiyotlarni o'z boshidan kechirishni takazo etadi. Shuning uchun qam nemis olimi va mutaxassisi Margaret Forverg ulardagi dramatizatsiya elementining borligini, bu – «Shaxsda o'zida mavjud bo'lgan va o'zgalardagi begona obrazlarni to'zatish – korrektsiya qilish samarasidir», - de6 yozgan edi. (Vvedeniya v marksistkuyu sotsialnuyu psixologiyu. 1972). Muallif rolli o'yinlarni uch asosiy jihatlariga ajratadi: - o'yinning emotsional jihatdan mukammalligi;

- unda identifikatsiya va empatiya xodisalarining rivojlanganligi;
- boshlovchining aloqida, o'ziga xos mavqega ega ekanligi;

Rolli o'yinlarning korrektsion va amaliy ahamiyati shundaki, ularda har bir shaxs o'z real faoliyatiga yaqin bo'lgan vaziyatlarga tushiriladi va shu orqali uning ustakovkalari o'zgartiriladi. Bunda o'zin ishtirokchisining o'sha vaziyatni xissiy o'z boshidan kechira olishi katta ahamiyatga ega. Rolga kirishning esa quyidagi talablari mavjud;

- a) kitob tilida gapirmaslik.
- b) muloqotning barcha kodlari va sirlaridan foydalanish.
- v) ovoz xususiyatlariga muntazam e'tibor berish, ya'ni intonatsiyalar, tovushlarning past–balandligi, ovozning emotsiyonalligi bu o'rinda rolni aniqroq idrok qilishga imkon beradi.
- g) mimika va pantomimika elementlarini keng qo'llash;
- d) har bir xolat va turishni jonlantira olish;
- e) vaqt va fazoni doimo tushinib, xis qilib turish;
- j) boshlovchini rolga kirganlar xolatlarini aniq tushunishi va ularga mos baqo berib turishi;

Rolli o'yinlarda eng avvalo ishtirokchi shaxs sifatida o'zligini namoyon qila boshlaydi. Rolli o'yinlarning o'z-o'zini namoyon qilish va shu orqali o'z qulqini tuzatishga imkon berishi xususiyatiga o'z vaqtida amerikalik olim Jon Moreno qam e'tibor bergen va o'zining psixodramatik texnikasida unga katta ahamiyat bergen edi. Texnikaning moxiyati shundan iborat ediki, ishtirokchi ichki ziddiyatlarga boy vaziyatni o'ziga o'xshash shaxslar bilan birgalikda xis qilish va uynash orqali tularoq qamda aniqroq anglaydi. Rolli o'yinlarning ijtimoiy psixologik ahamiyati qam aynan shu narsaga boqliq. Shuning uchun qam san'atkorlar, dramatik aktyorlar o'z maxoratlarini takomillashtirishda shunday psixotahlil usulidan keng foydalanadilar, zero, o'zini anglamaguncha, o'zga bo'lolmaydi, va aksincha, «o'zga bo'lish san'ati – o'zlikni anglamokdir».

Ushbu tamoyillarni xisobga olgan qolda Moreno keyinchalik «guruxiy psixoterapiya»ni qam rivojlantirdi, unda qam individning gurux qayotiga kirib borishi, gurux ta'siriga beriluvchanlik o'z ichki xolatlarini va o'zgalar ruxiy

kechinmalarini bevosita xis qilish orqali ro'y berilishiga aloqida e'tibor haratgan. har bir o'yin bir necha daqiqadan tortib, to1-2 soatgacha davom etishi mumkin, unda 2 kishidan tortib to10 kishigacha ishtirok etadi. O'yin jarayoni quyidagicha kechadi; avval tipik ijtimoiy psixologik vaziyat modellashtiriladi. M: agar bir maktab qayoti bo'lsa, o'qituvchilar, o'quv ishlarini boshharuvchi va xokazolar personaj sifatida har birining mavqeい aniqlanadi va ishtirokchilarga muammo moxiyati tushuntiriladi. Barcha trening a'zolari vaziyat bilan tanishib chiqadilar va muammoli vaziyatdan chiqishning mos, maqsadga muvofiq yo'llarini qidiradilar. Bunda e'tibor berilishi lozim bo'lgan asosiy narsa—ishtirokchilarni soqlom shaxslararo munosabatlarga o'rgatish.

O'yin boshida boshlovchi har bir ishtirokchiga uning shaxsiy istagi va xususiyatini qisobga olgan qolda aniq personajlarni bo'lib beradi. Keyinchalik rollar almashinishi mumkin, ya'ni har bir rolni navbat bilan bir necha kishi o'ynab chiqishi mumkin. Masalan: stipendiyani odilona taqsimlash muammosini xal qilayotgan dekan roli yoki harzdor, lekin moddiy yordamga muxtoj talaba rollari bir necha marta o'ynalishi mumkin va oxirida qamma bir bo'lib, o'tgan xodisalarni tahlil qiladilar. Bunda ko'proq u yoki bu shaxsning roli aktyorona o'ynagani emas, balki rolga munosabat, vaziyatdan chiqishda emotsiyaning ishtiroki va rolni xis qila olganlik san'ati tahlil qilinadi.

Rolli o'yinlar orqali katta auditoriyalarda tinglovchilar oldida nutq so'zlash, turli ishlab chiharish vaziyatlari yoki yiqilishlarda nizoli vaziyatning oldini olish malakalarini qam shakllantirish mumkin. Ma'lum ijtimoiy malakanasi xosil qilish uchun trening qatnashchisi bir necha o'yinlarda ishtirok etishi zarur. Modellash tirilayotgan vaziyat maksimal tarzda real qayotga yaqinlashtirilishi, qatnashchilarning yoshi, professional kunikmalari bunda xisobga olinishi kerak.

O'yinlarni tashkil etishda boshlovchining roli katta bo'lib, u har bir ishtirokchining muammo «tashkarisida» yoki muammoga chetdan turib baqo berishga emas, balki vaziyatga «ichkaridan» baqo berish, unga xissiy kirishishga yordam berishi lozim. Buning uchun uning o'zi ushbu vaziyatni tula bilishi, guruxda yaxshi ma'naviy muxitning bo'lishi, ishonch, samimiylilikka erishishi, o'zidagi barcha qobiliyatlarni ishga solgan qolda, ishtirokchilarga xissiy yordam berib turishi shart. Uning asosiy vazifasi – har bir ishtirokchini bolalarga xos xissiyotlar bilan o'yinga berilib ketishiga imkoniyat yaratishdir. Bu o'rinda ijtimoiy psixologiyada farq qilinadigan 3 asosiy rol haqida to'xtab o'tishimiz kerak.

Ijtimoiy qayotdagi ijtimoiy psixologik rollar asosan quyidagilardir:

«Katta» roli – u doimo yo'l ko'rsatuvchi, aql soxibi, u adashmaydi, chunki uning qayotdagi maqsadlari aniq va ravshan, uning taklif va fikrlari odatda boshqalar tomonidan e'tirozsiz qabul qilinadi. Bu rol xususida yana shuni aytish mumkinki, qayotdagi «katta» yoshga emas, ko'proq shaxsiy tajribaga, qayotga individual munosabatga boqliq. Shuning uchun ba'zan kichik yoshli bola qam o'zini «katta»day xis qilishi mumkin, bundaylarni qayotdagi laqabi – «yosh hari» yoki «keksha hari» bo'lib, ularda o'z-o'ziga baqo berish qamisha yuqori va turmush ikir-chikirlariga befarq bo'lmaydi.

«Ota-on» roli – qam mavqe va ijtimoiy moxiyat nuqtai nazaridan kattaga o'xshaydi, Lekin unda ko'proq nasixatguylik sifatlari, mexribonlik, doimo qamxo'rlik qilish fazilatlari bilan uyqunlashadi. Bu rolni ijro etish uchun nikoqqa

kirish yoki nikoq yoshida bo'lish shart emas, u odamning dunyoharashi, shaxs sifati va fazilatlariga ko'proq boqliq.

«Kichik» roli – Bu rol qayotda ko'proq uchraydi va uning moxiyati shundaki, odam doimo o'zgalar pand-nasixati va ko'rsatmalariga muxtoj bo'ladi, uni doimo boshharish va etaklash kerak. Bilim saviyasi yoki yoshidan qat'iy nazar «kichik» - doimo o'zgalar harakatiga taqlid qilish, tez, asossiz xulosalar chiharish, mantiqsizlikka qam yo'l qo'yish illatiga ega. Ko'pchilikka kichik rolda bo'lish qulay, chunki u o'z harakatlari va gapirgan gapi uchun mas'uliyat xis qilmaydi, boshqalardan andoza olishga o'rgangan. Yuqoridagi rollar moxiyatini nazariy jihatdan bir-biridan farq qilib, anglab olgan trening qatnashchilari ularni turli variantlarda qo'llashlari mumkin. M: shunday o'yin vaziyatini olaylik: oilada bir oz ishlab topgan jamgarmalarni qay yusinda oqilona sarflash ustida bosh qotirilmoqda. Yuqoridagi uch rol nuqtai nazaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bu rollarni olti va undan ortiq variantlarda trening qilish mumkin. M: Er navbat bilan yo «katta» yo «ota-on» yoki «kichik» bo'lib pulni ishlatish xususida turlicha fikr muloxaza yuritadi, xotin qam turli ijtimoiy roldan kelib chiqib munosabat bildirishi mumkin. Bir vaziyat: xotin oila lideri, uning roli «katta»: «Aslida, adasi Sizning aytganingiz ma'qul-ku, Lekin men bir narsani aytay. Shu pullarni oilaga umuman naf keltiradigan yaxshi narsaga sarflasak-da, bizdan keyin bolalarga qam qolsa. Men yaxshilab o'yladim-bu pullarga...olgan ma'qul...». Ikkinchchi vaziyat-xotin «kichik» rolida-«voy, men qaerdan bilay, bu pullarni nimaga sarflashni, o'zingiz nima qilsangiz qilavering, doim o'zingiz bilib ish qilardingiz-ku...!q». Uchinchi vaziyat: xotin «ota-on» rolida-«Men sizga ishonamanki, to'plangan pullarni o'zingiz, farzandlar uchun ishlatarsiz, faqat bequda sarf-harajat bo'lmasa bo'lgani. Menga qolsa, albatta, uy-ro'zqordagi kamchiliklarga ishlatgan bo'lar edim, sizga qam shuni maslaqat beraman...». Shunga o'xshash erkak kishining mavqeい qam yuqoridagi rollar nuqtai nazaridan har xil bo'lishi mumkin. Boshlovchi har bir ishtirokchining rolni qis qilishiga harab, uni ana shunday toifalarga bo'lishi va chiqmagan rolni yaxshiroq o'ynashga chorlashi qam eqtimol..

Rolli o'yinlarni tashkil etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ulardan eng muqimi-o'yin vaziyatining kattalar tomonidan noto'g'ri idrok qilinishi, unga rasmiy tus berilishi va kattalarning «bolalar» obrazlariga kira olmasliklaridir. Ushbu barerni (to'siqlarni) olib tashlashda etakchining o'rni muqim bo'lib, bir tomondan, rolli o'yinning predmeti bo'l mish ijtimoiy psixologik vaziyatni tanlay olgani, ikkinchi tomonidan, ishtirokchilar oldiga muammoning qo'yilishi va har birining uni qis qilishga ko'mak berishi katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy psixologik vaziyat o'z ichiga quyidagilarni oladi: o'yinning syujeti, qo'yilgan ijtimoiy psixologik muammo, berilgan shaxslararo munosabatlarning harakteri. Demak, tanlangan vaziyat ikki asosiy talabga javob berishi kerak: a) uning mazmuni va muammoning harakteri real borliqqa, qayotdagi vaziyatlarga to'g'ri kelishi; b) uning ishtirokchilar uchun ahamiyatli bo'lishi. Agar shu jihatlarga boshidan e'tibor berilmasa, ishtirokchilarda trening haqida noto'g'ri tasavvur shakllanadi, uning maqsadi teskari talqin etiladi va samara kutilgandek bo'lmaydi. Shuning uchun ishtirokchilarni o'yin vaziyatiga to'g'ri yo'naltirish, ularning har birida to'g'ri motivatsiya va qiziqishni qosil qilish boshlovchidan qam tajriba, qam psixologik malaka talab qiladi. Ana shu jihatlar o'yin mazmunining

qatnashuvchilarning xotirasida uzoq muddatda saqlanishiga va faol ustanovkalarga aylanishiga sabab bo'ladi.

Rolli o'yinlar jarayoni. Bu jarayon ba'zan psixologik amaliyotda psixodramatik seans deb qam atalib, uning asoschilaridan biri, yuqorida ta'kidlanganidek, J. Morenodir. O'yin jarayonidagi asosiy shaxslardan biri-boshlovchidan keyin ijtimoiy psixologik vaziyatning markazida to'rgan shaxs, uni ilmiy adabiyotlarda protagonist deb atashadi. Uning ijtimoiy psixologik vaziyatdagi muammo qamda ziddiyatlarni qal qilishdagi roli kattadir, chunki u aynan voqealarning markazida turadi. Unga o'z rolining barcha jihatlarini har tomonlama namoyon qilish ququqi beriladi, boshqa rollar esa uning tabiatidan va xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ya'ni protagonist asosiy muammoni eltuvchi va boshqalarni o'ziga ergashtiruvchidir. Rollar o'ynab bo'linganidan so'ng uning muqokamasi boshlanadi, unda barcha guruq a'zolari ishtirok etadilar va ularning har biri o'zini protagonist o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qilishi kerak. Psixodramada odam o'zini turli rollarga kira olishini sinab ko'radi, ya'ni bunda interpersonal tajribaning oshishiga qamda har bir shaxsning o'zidagi va boshqalardagi ustanovka va munosabatlarning qis qilinishiga imkoniyat tuqiladi. M: erkak kishi ayolni identifikasiya qilishi, yosh odam keksani, bola kattani, katta bolani, rollar egiluvchanligi qis etiladi.

Klassik psixodramada, ayniqsa, «rejissyor» rolidagi boshharuvchi shaxsining roli katta. U qam o'yinni saqnaga qo'yuvchi, qam terapevt, qam psixoanalitik rolini o'ynaydi. Butun o'yin davomida u o'yinning katalizatori, har bir harakatning muvofiqlashtiruvchisi, rollarni aniq personajlar shaklida ishtirokchilarga bo'lib beruvchidir. U o'zining boshharuvchilik rolini ado eta borib, odamlarni ijtimoiy vaziyatni qis qilish va undan chiqish choralar yuzasidan terapeutik ko'rsatmalar berib boradi. har bir seansda rollarni almashtiruvchi va protagonistni tayinlovchi qam u qisoblanadi.

Rolli o'yinlardan kutilgan samaraning ijobiy bo'lishini ta'minlovchi bir qancha usullar mavjud. M: ulardan biri «rollar almashinushi» deb atalib, seans mobaynida protagonistlar va boshqa rol ishtirokchilarining o'rnlari almashtirib turiladi. M: birinchi ko'rinishda faol protagonist bo'lib o'ynagan shaxs boshqa ko'rinishda qo'shimcha personaj rolini o'ynashi, bir holatda o'qituvchi rolidagi odam keyin ota-onaya yoki o'quvchi bo'lishi mumkin. Demak, o'sha vaziyatdagi har bir personaj ichki dunyosiga kirish-to'la ma'noda o'sha vaziyatni qis qilishiga va unga moslashishiga yordam beradi. Yana bir usul «o'xshash cheqralar» deb atalib, uning mohiyati shundaki, o'yinning yanada ta'sirchan va samarali bo'lishi uchun 2 kishiga oldindan aynan bir xil rol beriladi, birinchi bosqichlarda ularning har biri aynan bir xil harakatlar bilan rolga navbatma-navbat kiradilar, faqat ma'lum bosqichdagina ularga «o'z» harakatlari yo'nalishini ishlab chiqish va kerak bo'lsa, ularga o'zgartirishlar kiritish mumkin. Yana bir usul shuki, «monolog» deb atalib, bir shaxsga ma'qul darajada o'z xissiy kechinmalarini to'liq bayon etishga imkoniyat beriladi. Ya'ni vaziyat, muammo va stsenariy boshlovchi tomonidan beriladi, faqat rol o'ynovchi uni o'zicha xissiy kechinmalarga boyitish va shu orqali har bir individ ruqiy dunyosining boyligini va o'ziga xosligini namoyon qilishi mumkin. Bundan tashhari har bir rolli o'yin vaziyatiga mos qolda uni tashkil etishning o'ziga xos shakllari qam bo'lishi mumkin, bu qam o'yin

metodlarining imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. M: «Seqrli magazin» o'yini, unga ko'ra, o'yin ishtirokchilari turli harakter xususiyatlarini ifodalovchi rollarni imitatsiya qiladilar. M: biri «aql», ikkinchisi «iroda» uchinchisi «iffat» va q.k. Protagonist «seqrli do'konga» kirib o'zida etishmaydigan qadriyat, ya'ni sifatni o'zida bor bo'lган, unga «qadrsizroq» sifatga almashtirib ketishi mumkin, o'zini-o'zi tahlil qilib tarbiyalash dasto'rini ishlab chiqishda bu o'yinning ahamiyati katta.

Shunga o'xshash «notanish odam bilan tanishish», «kelajakni tasavvur qilish», «oynadagi aks» kabi o'yinlar qam shaxsning o'zini-o'zi ruqiy tahlil qilish va o'z qulq-atvorini to'zatishida katta ahamiyatga egadir. Bu o'yinlar o'z oldiga qo'yan maqsad va mazmuniga ko'ra turlicha bo'lishi va aniq maqsadlarga xizmat qilishi lozim.

Vaziyatli treningning qayotdagi ta'sirchan misoli sifatida AQSh maktablaridan birida o'tkazilgan eksperimentni keltirish mumkin. O'sha maktabda bolalar o'rtasida keng tarqalgan etnik ziddiyatlarning oldini olish uchun quyidagi ish amalga oshirilgan. O'qituvchi sinf o'quvchilarini «ko'k ko'zlilar» va «qora ko'zlilar» toifasiga ajratgan, «ko'k ko'zli» bolalarni ma'lum vaqt mobaynida tinimsiz qo'llab-quvvatlab, boshqalarni kamsitaverган. Vaqt o'tgach, uni aksini qilgan, ya'ni endi «qora ko'zlilar» har qanday qilmishlari uchun faqat maqtov olishgan. Shu eksperiment davomida har bir guruq vakili «e'zozlanganlar», «kamsitilganlarning» aqvoli qanday bo'lishini o'z boshidan kechirgani uchun qam bir-birlariga nisbatan munosabatlarda ko'z rangi yoki qaysi ijtimoiy toifaga taaluqlilik omili ruqiy munosabatlarga ta'sir qilmasligi haqida xulosa chiharishga o'rganganlar. Bu eksperiment «klassik sotsiodrama» qam deb ataladi. Shunga yaqin «pedagogik psixodrama» qam borki, uning yordamida tarbiyasi oqir qisoblangan bolalarni tarbiyalashda foydalaniladi. Bu uslublarning barchasi o'z mohiyati jihatidan o'yindir, Lekin ular ko'pincha qayotiy vaziyatlar doirasida maxsus sharoitlarda o'tkazilsa, qulq-atvorni to'zatilishiga erishiladi.

Amerikalik olim E.Brenning transakt tahlillari metodi qam shunga yaqin, faqat unda odamlarni qam bir ijtimoiy vaziyatlardagi samarasiz (nojo'ya, bequda) harakatlari tahlil qilinadi va o'yin vositasida ishtirokchilar to'g'ri harakatlarga o'rgatiladi.

Shunday qilib o'yin metodlarini qo'llash soqalari niqoyatda ko'p, ular doimo insonni qayotda to'g'ri mavqega ega bo'lishiga, o'zi istagan, orzu qilgan qayotiy vaziyatlarni o'zi yaratishga o'rgatadi va undaydi. O'yinning har qanday shaklini tashkil qilishda va uni samarali o'tkazishda, tabiiyki, trenerga ijtimoiy psixologik bilimdonlik, qayotiy, tajriba muloqot san'ati va sabr toqat kerak. Shuning uchun qam o'yinni o'rganish va o'zi bilgan narsalarni birovlargacha o'rgatish malakasiga psixokorreksion maqsadlarga erishish mumkin.

Tayanch iboralar: O'yin, operatsional o'yinlar, rolli o'yinlar, rolga kirish talablari, guruqiy psixoterapiya.

Nazorat savollar:

Ijtimoiy psixologik bilimdonlikni oshiruvchi o'yin turlarini ko'rsatingq

Rolga kirishda qanday talablarga rioya etish kerakq
O'yinlarni tashkil etishda boshlovchining o'rni qandayq
Ijtimoiy psixologik vaziyat nimaq
Rolli o'yinlar jarayonini tasvirlab bering.
Rolli o'yinlar samaradorligini ta'minlovchi usullar qaysilarq

8- Mavzu. Pertseptiv trening va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari.

Reja.

1. Pertseptiv treningning shaxs uchun ahamiyati.
2. Pertseptiv va senzitiv treninglarni tashkil etish shartlari.
3. Pertseptiv treningning asosiy bosqichlari.
4. Senzitivlikning turlari.

Pertseptiv trening qam ijtimoiy psixologik treningning bir shakli bo'lib, u qam eng avvalo shaxsni o'z-o'zini to'g'ri anglash va tushunish orqali boshqalarni to'g'ri roq bilishga va ular bilan mos munosabatlar urnatishga haratadi. Ushbu trening to'rining asl moxiyati shundaki, unda ishtirok etuvchi shaxs avvalo o'zidagi ayrim xissiyotlarni uygotish orqali o'z qilmishlarini xolisona baqolash va shu orqali o'zgalar ichki olamida ruy beradigan xissiy kechinmalarni anglash imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada o'z-o'zini mukammallashtirish dasto'rini ishlab chiqadi. Pertseptiv trening jarayonida ishtirok etuvchilar o'zлари o'zgalar ko'z ungida qanday baqolanishlarini, o'zgalar mavqeida turib, o'zlariga to'g'ri baqo berish va o'z qulqiga o'zgalardan beriladigan munosabatni xis qilishga muvaffak bo'ladilar. Ilmiy adabiyotlarda pertseptiv trening ba'zan senzitiv trening qam deb ataladi. Zero, «senzitiv» trening ma'nosi – sezgirlikdir. Ya'ni senzitiv trening mashqulotlarida odamning shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan xissiyotlarga sezgirligi oshadi.

Bu usul asrimizning 50-yillarida yuzaga kelgan bo'lib. U asosan pedagoglar, rejissyorlar, psixoterapevtlar, psixologlar tomonidan turli meqnat jamoalari raxbarlarini o'qitish va ularagi kommunikativ qobiliyatlarni o'stirishda qo'llanilgan mashqulotlarda ishtirokchilar «o'zgalar oyoq kiyimida yurish» vaziyatiga solinib, shu orqali ularda birovlar bilan muloqatga kirishganda extiyot bo'lish xissi va empatiya tarbiyalangan. Usulning muxim xususiyati shundaki, T-guruxni tashkil etishda shaxsiy faoliyatni yunaltirishda qatnashchilarga maksimal darajada erkinlik beriladi. Bunda ishlatiladigan eng o'ziga xoslik shuki, o'yin ishtirokchilariga oldindan nima bo'lishi haqida deyarli xech qanday ma'lumot berilmaydi. O'yin qatnashchilari guyoki kommunikativ vakuum xolatiga tushiriladi. Shuning uchun qam bu jarayonning samarasiga «sinashlar» va «xatoliklar» vositasida erishiladi.

Shunday qilib, pertseptiv treningda ishtirokchilar faoliyatida aqliy (intellektual) jarayonlardan kura xissiyotlar, emotsiyalar muxim rol uynaydi.

Pertseptiv treningni tashkil etish shartlari.

Mashqulotlar boshlanishidan avval ishtirokchilarga liderlik, motivatsiya, shaxslararo muloqot, guruxiy jarayonlar, shaxs tiplari haqida ma'ruzalar o'qitiladi,

amaliy mashqulotlar oldidan har bir ishtirokchiga yozma matnlar berib chiqiladi, ularda qam ma'ruzalarda ko'tarilgan muammolarga oid amaliy xulosalar va tavsiyalar mavjud bo'ladi. Bo'larnig barchasi aslida umumiy «fon» rolini uynaydi va qatnashchilarni o'yinga ruxiy jihatdan tayyorlaydi.

Trening mashqulotlarida o'rtacha 6-15 kishi qatnashadi va ular 2 sutkadan tortib to 4 xaftagacha davom etishi mumkin. Guruxda turli yosh va kasb vakillari bo'lishi mumkin, ular bir-birlarini tanimasliklari kerak. Odadta pertseptiv trening biroz gayritabiyy sharoitlarda, M: maxsus trenirovka markazlarida, mexmonxonalarda, shahar tashkarisida, saylgoxlarda o'tkaziladi. Lekin oxirgi yillarda ko'p joylarda tashkil qilinayotgan ana shunday treninglarda kasbi bir yoki bir biriga yaqin kishilar guruxida qam o'tkazilmokda va u ijobjiy natija beryapti. Odadta mashqulotlar sessiyalar deb ataladi va ularga ijtimoiy psixolog yoki amaliyotchi psixolog raxbarlik qiladi, Lekin uning roli o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni u ma'ruzalar o'qishdan tashkari o'zaro muloqatlar jarayonid «katalizator» sifatida guruxiy jarayonlarni faollashtirishga bevosita aralashishi va muloqotga tabiiy ishtirokchi sifatida kushilib turishi mumkin. Treningning asosiy talablaridan biri shuki, unda kundalik qayotda odatlanib qolningan muloqot tizimlari shaxsni qayotdagi mavqeい yoki obro'siga e'tibor berishlari mavjud bo'lmaydi. Chunki ishtirokchilar erkin muloqot jarayonida o'zlarini boshqalar tomonidan qanday idrok qilayotganliklarini anglashlari va shu orqali o'zlarini idrok qilishga tuyassar bo'lishlari kerak va bu narsa ko'pincha o'yindan keyingi munozaralarda kurib chiqiladi.

Pertseptiv treningning 3 asosiy bosqichi mavjud.

1. Kirishish bosqichi. Bunda gurux a'zolari o'rtasida o'zaro ilik munosabatlar urnatilishi, ularda ustakovkalar, harashlardan kutilish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim. Shuning uchun bo'lsa kerak birinchi bosqich «mo'zning erishi» qam deb ataladi.

2. O'zgarish bosqichi. Bunda yangicha sifatlar va sabablar shakllanishi boshlanadi va gurux a'zolari bir-birlari bilan yaxshi munosabatlar urnatilganligi sababli bir birlaridan tortinmaydigan bo'ladilar.

3. Mustaxkamlanish bosqichi, obrazli aytilda, bu bosqich «mo'zning yana qayta kotishi» qam deyiladi. Bu gurux tan olgan va ma'qo'llangan, shaxs uchun manfaatli sifatlar mustaxkamlanadi va yangicha munosabatlar tizimi shakllanadi. Xosil bo'lган tizim uzoq muddat xotirada saqlanadi.

Pertseptiv treningning ishtirokchilari barcha bosqichlardan utishlari shart va ularda qaysi bosqichning kay darajada uzoq kechishi gurux a'zolarining shaxsiy xoxishlari, qayotiy tajribalari va istaklariga boqliq. M: ko'pincha birinchi bosqichda muloqot ruy beradi va a'zolar munozaralar va o'yinlar vositasida turli vaziyatlarga o'zlarini qo'yish orqali yangi harashlarni shakllantirishga ko'p vaqt sarf qiladilar.

Pertseptiv trening o'yinlaridan biri – ko'r-ko'rona ishonch deb atalib, unga ko'ra, ishtirokchilar 2 guruxga bo'linadilar. 1-gurux a'zolarining ko'zлari boglanadi va ularni bittama- bitta ikkinchi gurux a'zolari etaklab, yo'l ko'rsatib boradilar. O'yin 10 minutgacha davom etadi va bu davrda ishtirokchilar gaplashmaydilar. 10 minutdan so'ng rollar almashinadi, endi boshlovchi «ko'zi ojiz» rolida bo'ladi. Odadta 1-bosqichda ko'zi boqlangan o'z boshidan oqir qismatni kechirgani uchun

qam sherigini etaklashda ko'proq extiyotkor bo'lib, kiynamay etaklay boshlaydi. Kechirilgan xissiyot o'yin tugagach, keng muxokama qilinadi. Bu o'yining ijtimoiy moxiyati shundaki, u orqali boshliq va bo'ysunuvchi, nochor va baxtli odamlar toifalarining ruxiy kechinmalari tahlil qilinadi qamda qayotda tushkunlik yoki tajribasizlik tufayli nochor insonlarga qanday muomalada bo'lish kerakligi haqida xulosalar chihariladi.

Ko'pincha shunday o'yinlarda ayrim shaxslar sira guruxga qo'shila olmaydilar, bu qam ularning jamiyatdagi mavqelari va odamlarga munosabatlarini yaqqol namoyon qiladi, masalan ana shunday o'yinlarning birida bir raqbar xodim «Men xech kimga qo'shila olmayapman, meni gurux qabul qilmayapti-kuq», - deb e'tirof etgan. Shunda gurux azolari: «To'g'ri, siz o'zingizni go'yoki oramizdag'i ayqoqchiday tutyapsiz, o'zingizni katta olmay, qamma qatori tuting», - deb unga tanbex berishgan. Demak, o'sha boshliq ishda qam yangi xodimlar yoki yangi shaxslar bilan tez «til topishib» keta olmaydi, unda «subordina» kasali bor. O'yin mobaynida o'sha shaxsdagi ana shu illat tuzatilgan. Demak, senzitiv yoki pertseptiv trening jarayonida gurux a'zolari o'rtasida doimiy «teskari aloqa» ning bo'lishi katta ahamiyatga ega. Chunki ishtirokchilar doimo turli vaziyatlarda o'zining va o'zgalarning qulq-atvorini kuzatishi qonuniyatiga ega bo'ladi va bunda shaxsning o'ziga xos sifatlari tarbiyalanadi. Umuman, sentiziv treningning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u birinchidan, o'z-o'zini va o'zgalarni tushinish jarayonini tezlashtiradi va bunda shaxslararo idrok streotipleri tahlil qilinadi, ikkinchidan, guruxiy jarayonlarning o'ziga xos qirralarini xis qilish odatdag'i kundalik muloqotda voz kechish mushkil bo'lgan «egoximoya» shablonlaridan kutilish imkonini beradi, uchinchidan, birovlarining dardini xis qilish, co'zlarini eshitish qobiliyatini o'stiradi.

To'rtinchidan, turli vaziyatlarda to'g'ri va aniq savollar berish, zarur bo'lsa, ularga o'zi qam javob berish malakalari xosil bo'ladi.

Beshinchidan, o'zgalarni va o'zini tanqid qilish, muloqotning verbal va noverbal usullaridan samarali foydalanish va ularni o'zlashtirish sodir bo'ladi.

Bu usulni nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqqan AqSh olimi G.Smit uning quyidagi turlarini aniqlagan edi:

1. Kuzatuvchanlikka asoslangan senzitivlik. Bunda asosiy narsa, shaxsning kuzatuvchanlik qobiliyatiga asoslangan qolda nafakat o'zining, balki boshqalarning har bir harakati, nutqi, tana harakatlari, mimikalari va boshqa jihatlarini tashqi tomondan bevosita idrok qilish va kuzatuv tajribasiga tayangan qolda o'z harakatlarini to'zatish imkoniyatini beruvchi fazilatlarga ega bo'lishdir. Ya'ni insondagi bu sifatlar -kuzatuvchanlik qobiliyati shunday faol jarayonki, unda fakat ko'rish organlari orqali qayd qilingan tashki ob'ektlargina inobatga olinmay, balki bunda shaxs ko'rishni xoxlagan jihatlar qam ongda qayd etiladi. M: o'zi yoktirgan odamda bevosita qayd etilmagan sifatlar qam e'tirof etilishi mumkin. Ayniqsa, o'z-o'zini kuzatishga asoslangan introspektiv usul qam bunda katta rol uynaydi.

2. Nazariy sentizivlik. Bu shaxsning o'zidagi qoyalar, nazariy harashlarni o'zgalarning xissiyotlari, fikrlari va harakatlarini sharxlash va baqolash uchun ishlatish qobiliyatidir. M: shaxs tiplari haqidagi nazariy bilimlar bizga o'zgalarni osonroq bilishga yordam beradi.

3. Nomotetik senzitivlik. Atamaning ma'nosi grekcha «qonuniy o'rnatilgan» so'zidan kelib chiqadi, ya'ni, u yoki bu shaxsning o'zini va o'zgalarni bilish va ularning qulqiga baqo berish uchun o'sha shaxs mansub bo'lган ijtimoiy gurux vakilining tipik fazilatlaridan foydalanish unga xos bo'lган obraz qamda tushunchalarini ishlatalish qobiliyati – nomotetik senzitivlikdir. Demak bunda shaxs o'zini va o'zgalarni aniqroq baqolash uchun o'sha ijtimoiy gurux vakilining «umumlashtirilgan obrazidan foydalanadi.

4. Idiografik sentizivlik - «o'ziga xos» so'zidan olingan bo'lib, nomotetikdan farqli ularoq, u har bir shaxsni o'ziga xos idrok qilish va shunday imkoniyatdan foydalanish qobiliyatidir. Bu qobiliyat «qaytarilmas, o'ziga xos » tushunchalaridan kelib chiqadi.

Senzitivlikning barcha yuqorida keltirilgan turlari, tabiiyki, aloqida-alоqida qo'llanilmaydi, amaliyotda esa o'yinlarni tashkil etishda ularni barchasidan oqilona foydalanishgina samara beradi. Shuning uchun qam ular haqidagi bilimlarga ega bo'lish, bиринчи navbatda boshlovchi psixologlar uchun zarurdir.

Shunday qilib, agar ma'ruzalar tinglash jarayonida shaxs boshqalarning, umuman olganda o'zlarini qanday tutishlari haqida tasavvurga ega bo'lsa, T-guruxlarda uyushtiriladigan mashqulotlarda u o'zining jamiyatda tutgan o'rnini anglash, boshqalar tomonidan qanday idrok qilinayotganligini xis qilish, o'zgalarning unga ta'siri qanday bo'layotganini sezish imkoniyatiga ega bo'ladi va shu orqali boshqalarga nisbatan munosabat tuzilish tizimini mukammallashtiradi.

Sinektika bu o'rinda inson tasavvurlarini yanada rivojlantirish usuli sifatida turli mutaxassislar shaxs harashlarini qayta tahlil qilish usuli sifatida qo'shimcha yordam beradi. M: bu o'rinda «Robinzon» o'yinining o'ziga xos variantini taklif qilish mumkin.

Aytaylik, gurux, insonsiz orolga tushib qolgan, maqsad, katta qayiq yasash va orolni tark etish. Gurux a'zolari barcha yo'llar haqida fikrashib, va nixoyat, 12 oy ichida shu oroldan chiqib ketish dasturini ishlab chiqadilar. Fikrlar, takliflar bajaruvchilar haqidagi fantastik obrazlar va yaxlit tizim guruxda ko'plab shaxslararo muammolarni yo'l-yo'lakay xal qilishni talab qiladi, natijada odamlar bir-birlarini yanada yaqindan bilib oladilar.

Tayanch iboralar: Pertseptiv trening, «umumiyl fon» «sessiyalar» pertseptiv trening bosqichlari, Senzitivlik.

Nazorat savollari:

1. Pertseptiv trening moxiyatini aytib bering.
2. Pertseptiv treningni tashkil etish shartlari qaysilarq
3. Pertseptiv trening bosqichlarini ko'rsating.
4. Pertseptiv treningga misollar keltiring.
5. Senzitiv treningning ijtimiy ahamiyati nimadaq
6. Senzitivlik turlarini sanab bering.

9-Mavzu. Ijtimoiy psixologik treningni tashkil etuvchi shaxs bilimdonligini

oshirish muammosi.

Reja

Ijtimoiy psixologik treningni tashkil etuvchilarni tayyorlash muammosi.

Trener shaxsiga qo'yiladigan talablar.

Boshlovchi trenerning asosiy vazifalari.

IPT da samarali muloqotga erishish omillari.

Ijtimoiy psixologik trening insonlar o'rtasidagi soqlom munosabatlarning bo'lismiga erishishni maqsad qilib qo'yar ekan, uni o'tkazuvchi, uyushtiruvchi shaxs va uning o'z ishini mukammal bilishi faoliyat samarasini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Trening o'tkazuvchiga qo'yiladigan asosiy shartlardan va talablardan biri shuki, u muloqot jarayonining barcha qirralarini professional darajada mukammal egallagan bo'lismi kerak.

U qam bo'lsa- nazariy bilimlarni bevosita amaliyotda, trening jarayonida qo'llay bilishdir. Ularni odatda trenerlar, instruktorlar, boshlovchilar deb atashadi. Demak, treninglar uyushtiruvchi muassasa yoki tashkilotlarda eng avval e'tibor berilishi zarur bo'lgan narsa qam shuki, u erda ijtimoiy psixolgik trening olib boruvchilarni o'qitish, tayyorlash ulardan mo'taxasis etishtirishdir.

Trener shaxsiga qo'yiladigan talablar quyidagilar:

U avvalo o'zgalar shaxsiga xos bo'lgan xususiyatlarni juda yaxshi bilishi va bundan inglizlar aytganidek « O'zgalar psixologiyasini bilish- ular ustidan xukmronlikning bir shaklidir» degan naqlni esdan chiharmaslikdir, Lekin bunda pedagogik altruizm- ya'ni o'zgalar manfaatini o'zinikidan ustun qo'yish xislati bo'lismi kerak.

O'zining shaxsiy fazilatlari va psixologiyasini mukammal bilishi va uni boshhara olish qobiliyatiga ega bo'lismi zarur.

har qanday chigal yoki ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketishgina emas, balki uni oldini ola bilish, vaziyat to'g'ri kelganda esa bartaraf etib, ishtirokchilarga to'g'ri mslaxat bera olish

Empatiya, ya'ni o'zgalar xolatlarini chukur xis qila olish qobiliyatining mavjudligi. O'zgaruvchan, moslanuvchan aql soxibi bo'lismi, kutilmagan xolatlarga , o'zini oldindan tayyorlash, o'zini yo'qotmaslik.

O'z xatti harakatlarini doimo ma'lum makomda ushslash va kerak bo'lsa o'zidagi motorikani rivojlantira olish.

O'zgalar nutqi, reaksiyalarini aniq tushunish va tinglash, mimika va moxiyatlar harakatini to'g'ri talqin etish va tushunish

Tinglovchilar va o'yin ishtirokchilarining extiyojlari va qiziqishlariga harshi bormasligi

Rejalashtirish qobiliyatining bo'lismi, bunda oldindan kutilayotgan jarayonning barcha muxim va nomuxim jihatlarini oldindan taxminan bo'lsa qam ta'savvur qilib, aniq reja reja tuza olish

O'ziga ishonch, e'tiqodning mavjudligi, real tafakkur va irodanining bo'lismi

Boshlovchi trenerning asosiy vazifalari qam uning shaxsiga qo'yiladigan talablardan bevosita kelib chiqadi. Ya'ni u:

- A) avvalo ta'lim dasturiga ega bo'lishi kerak
- B) dasturga mos stsenariyalar tanlay bilish, kerak bo'lsa, har bir aniq xolat va vaziyatga moslashtirish, mashqulotlarni tashkil qilishda qam ushbu xolatlarga e'tibor haratish shart
- V) qatnashchilarning yoshi, jinsi, kasbiy malakalari, madaniyat darajasi va extiyojlarini mos ravishda dastur va stsenariylarga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish qobiliyatiga ega bo'lishi, mashqulotlar shakli, vaqt, joyini qam yuqoridagi omillarga mos ravishda tanlashi ularning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Imkoniyat boricha tinglovchilarni mashqulot boshlanishidan avvval mavzu bo'yicha yozgan matnlar bilan ta'minlash va ma'ruzalarni iloji boricha o'zi o'qib, amaliy mashqulotlarga qam begonalarni jalb qilmagani ma'qul chunki bu erda «nimanga o'rgatish» va «qanday o'rgatish» degan savollarga javobgar shaxs bir ish bo'lsa, harakatlarda uyqunlik bo'lishi mumkin.
- Ijtimoiy psixologik treningdan boshlovchi roliga duch kelgan shaxslarni jalb qilib bo'lmaydi. Chunki mashqulotlarni o'tkazuvchi maxsus tanlovda ishtirok etgan bo'lishi va unda uning komunikativ maxorati, o'z-o'zini nazorat qila olish qobiliyati, bosiqligi, xissiyotlarining muqobiligi, ularga ma'lum ma'noda turqunlik xos bo'lishi shart.
- Tanlovchi umuman xolis ekspertlar, trenerlarni tayyorlash kurslari qam nisbatan uzoq muddatga mo'ljallangan mashqulotlar tizimidan iborat bo'ladi.
- IPTdan samarali muloqotga erishish uchun quyidagi omillar xisobga olinishi maqsadga muvofiq:
- A) maqsadning aniq bo'lishi, uning boshlovchi va ishtirokchilar tomonidan bir xil idrok qilinishi va tushunilishi. Demak bu o'rinda guruxiy va individual maqsadlar o'rtasidagi moslik va kelishuvning mavjudligiga e'tibor haratilishi shart.
- B) Ikki tomonlama muloqotning mavjudligi, ya'ni fikr va xissiy kechinmalarning aniqligi, ochiqligi va rostgo'ylik tamoyillariga e'tibor berish.
- V) faol ishtirok va guruxdagi liderlikning a'zolar o'rtasidan teng taqsimlanishiga erishish, ya'ni guruxda yaqqol ko'zga tashlangan lider yoki doimo o'z xissiy kechirmalarini va irodasini boshqalarga o'tkazishga harakat qilayotgan shaxsning bo'lmasligi
- G) ta'sir ko'rsatish yoki ruxiy tayziqning ishtirokchilar bilimlari, qobiliyatlar va malakalariga asoslanishi, Lekin bunda boshqalarning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik.
- D) haror qabul qilish va munozaralarini yakunlash bosqichlarida vaziyatga harab, boshlovchining tashabbusini o'z qo'liga olish xukuqidan foydalanishi .
- E) nafs va tortishuvilarga doimo to'g'ri, oqilona, konstruktiv tus bera olish, bu omil ishtirokchilar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi va ulardan shakllanadigan sifatlarning mustaxkamlanishiga zamin qozirlaydi.
- J) gurux faoliyatining samaradorligi masalasi qam o'sha gurux a'zolari tomonidan baqolanishi o'yin munozarani yana davom ettirish yoki to'xtashish msalasiga oydinlik kiritadi, aks qolda boshlovchi bu masuliyatni o'z bo'yniga olsa unda gurux o'z faoliyatidan qoniqmay qolishi mumkin
- Z) Birinchi gurux a'zolarining maksimal tarzda o'zini ko'rsatish, xattoki, o'zidagi yashirin emotsiyalarini va yangiliklarni namoyon etishga undash lozimki, toki u har qanday sharoitda qam o'z individualligini ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lsin.

Shunday qilib, ijtimoiy psixologik treningning samaradorligi bir tomondan, ishtirokchilarni faol qatnashishlarini va o'zlarini erkin xis qilishlariga boqliq bo'lsa, 2-chi tomondan, bu narsa boshlovchi, trener shaxsini xususiyatlariiga bevosita boqliqdir. Shuning uchun qam trener yoki yosh bo'lsa va unda ijtimoiy treningning o'tkizish tajribasi etishmasa, u o'ziga xos va mos auditoriyani topib ishlashi, birdaniga kattalar guruxiga, no'malum kishilar bilan ishlashdan o'zini tiyishi kerak. Chunki agar u o'z amaliy faoliyatini boshidayoq maqlubiyatga uchrasa, xech qachon u trening mashqulotlari o'tkaza olmasligi mumkin. Bu unda shaxsiy tushkunlikni keltirib chiharib, o'zi yordamga muxtoj bo'lib qoladi. Boshlovchi qam o'z faoliyatining amalga oshirishda yuqorida ta'kidlanganidek, IPT ning turli shakllaridan ma'qulroq turidan boshlashi mumkin. Masalan: o'zidan yosh bo'lgan bolalar guruxida turlicha oson o'yinlar tashkil qilish, savol-javob guruxlarini uyushtirish, dumaloq stol atrofida turli qayotiy mavzularni muxokama qilishga o'rgatish mumkin.

Chunki, psixodrammatik o'yinlar, ayniqsa, sotsiadrammalar shaxsdan yuksak kasbiy sifatlarni. Insonlar bilan ishlash tajribasini talab qiladi.

Boshlovchidan talab qilinadigan psixologik professionalizmning asl moxiyati shundaki, odamlar ko'ziga xatti-harakatiga harab, ularning niyat-istikclarini, treningda ishtirok etish qobiliyatini taxminan oldindan chamalab olishi va o'yin davomida moxirlik bilan ular harakatini zimdan boshharish qobiliyatiga ega bo'lisi shart. Shuning uchun maxsus ijtimoiy psixologiya kurslarida taxsil olmagan, professional tayyorgarlikka ega bo'lмаган shaxslar treningni boshhara olmaydilar. Bundan tashhari boshharuvchi shaxslardan fidoyilik, o'z manfaatini o'zgalarnikidan pastroq qo'yishi. Sabr-chidam, tezkorlik, faxm-farosat sifatlari talab qilinadi. Bu sifatlar ma'lumki, nafaqat nazariy tayyorgarlik asosida balki. Ko'proq qayotiy muloqot va ijtimoiy faoliyatning turlarida faol ishtirok etish natijasidangina qo'lga kiritiladi.

Tayanch iboralar: trener, pedagogik altruizm, trenerning vazifalari, IPT samaradorligi omillari, psixologik professionalizm.

Nazorat savollari:

Trener shaxsiga qanday talablar qo'yiladiq

Trenerning asosiy vazifalarini ko'rsating.

IPT da samarali muloqotga erishish uchun qaysi omillarni xisobga olish maqsadga muvofiqq

Psixologik professionalizmning moxiyatini tushuntiring.

10-Mavzu: Ijtimoiy psixologik faol uslublarni maxalliy sharoitlarda qo'llash va mutaxassislar tayyorlashda ulardan foydalanish.

Reja:

Ijtimoiy psixologik treningni tashkil etishning xududiy va milliy jihatlari.

Ta'lim-tarbiya tizimida faol ijtimoiy psixologik tayyorlov usullaridan

foydalanimishning ahamiyati.

Ijtimoiy psixologik bilimdonlik shaxs taqdiri va saloxiyatini belgilovchi muxim omil ekanligi.

Ma'lumki, yangilik doimo ayrim qiyinchiliklar va kishilar ongidagi to'siqlardan o'tib, qayotda o'z aksini topadi. Ijtimoiy psixologik treningning shaxs tarbiyasi, madaniyati va texnikasining qosil bo'lishidagi ahamiyati cheksizdir. Lekin bunga o'xshash texnologiyalar insoniy munosabatlар soxasida yangi bo'lib, ularni keng amaliyotda joriy etishda xalqning psixologiyasi uning ming yillar davomida shakllanib, xalq ongi va xotirasida saqlanib, mustaxkam o'rnashib ketgan an'analar, rasm-rusumlar va odatlar qatorida o'z o'rnini topishga aloqador maxalliy qamda milliy o'ziga xoslikni xisobga olish zarur.

O'zbek xalqi va O'zbekistonda yashayotgan boshqa millat vakillarida asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan muomala madaniyati, odob-axloqqa aloqador fazilatlar va qadriyatlar borki, ular dunyo sivilizatsiyasi doirasida juda yuqori baqolanib kelinmokda. Lekin ana shu olivjanob insoniy fazilatlarda ayrim jihatlar borki, ular aynan ijtimoiy psixologik treningni tashkil etish va o'tkazishda o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiharadi. M: o'zgalar fikriga erishish, shaxs yoshi va qayotiy tajribasini, jamiyatdagи obro'-e'tiborni har qanday sharoitda qam xisobga olish, tanqid yoki yoki o'z-o'zini tanqid qilishda yuz xotirlik fazilatlari, o'z xissiy kechinmalarini o'zgalar oldida ochiq oydin izxor qilmaslik, Evropa standartlari bo'yicha ijtimoiy psixologik treningni tashkil qilish va o'tkazishga monelik qilishi mumkin.

Xalqning, ayniqsa yoshlarning yangiliklarga intiluvchanligi, yangi innovatsion texnologiyalar, xorijiy tillarni o'rganishga intiluvchanligi va bu boradagi yoshlar iqtidorini xisobga oladigan bo'lsak, ularda jaqon talablari darajasida treninglarni faqat yoshlar auditoriyasida tashkil etish maqsadga muvofiqmikan, degan tabiiy savol paydo bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, har qanday vaziyat yoki omil doirasida qam etnopsixologik va xududiy o'ziga xosliklar xisobga olinishi zarur. Bu o'rinda shu narsa xech qanday e'tirozsiz qabul qilinishi lozimki, hozirgi davrda o'qitish va ta'lim-tarbiya tizimining barcha jabxalarida faol ijtimoiy psixologik tayyoragarlik usullaridan foydalanimish va foydalanilganda qam uning eng samarali, millat psixologiyasiga mos uslublarni keng tarqib qilish va amaliyotlarda joriy etish lozim. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy Dasturni amalga oshirishda qam uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida faol metodlardan keng ko'lamma foydalanimish o'zining samarasini bermokda. Zero, bugungi kunda bilimdonlikning eng muxim jihatlaridan biri qam ijtimoiy psixologik bilimdonlikdir.

Ijtimoiy psixologik treningni tashkil etishning xududiy va milliy jihatlarini xisobga olish deganda nimalarni tushunamizq

1-dan, har bir treningning maqsadiga oydinlik kiritilayotganda, uning qaysi toifasi kishilarga mo'jallanganligiga harab tahlil qilish; M: ayrim psixodramatik o'yinlarda kattalar va kichiklar, erkaklar va ayollar, xattoki, turli kasb egallari va nasab vakillari aralash ishtirok etaverган. Lekin bizning sharoitimizda agar katta yoshlilar bilan yoshlarni, mansabdorlar bilan oddiy fuharolarni, erkaklar bilan

ayolarni qo'shib trening o'tkazish rejalashtirilsa, u o'zining yaxshi natijasini bermasligi mumkin. Bizning tajribalardan shu narsa ayon bo'ladiki, treningning boshlashdagi kirish qismida ishtirokchilar o'rtasidagi psixodemotsional tanglikning oldini olish uchun erkin muloqot yoki xushomadlar qilish mashqlari qam aralash jinsli auditoriyalarda juda qiyinchilik bilan kechdi. Odatda rollar almashinuvi mavjud bo'lib, ular sun'iy ravishda o'zgartirilganda qam, ular qulqida tortinchoqliq, ko'nglidagi bor gaplarni ayta olmasliklarini uchratish mumkin. Shuning uchun qisqa vaqt oraliqida o'tkazilgan treninglarda gurux a'zolarini o'ziga mos toifalarga qo'shish jonliroq muloqotlarga sabab bo'ladi.

2-dan, treningda ishtirokchilarining yashash sharoitlari, yashash xududi qam qisobga olinishi zarur. M: shahar va qishloq, ishchilar shaharchasi vakili bilan deqqonlar o'rtasidagi muloqotlardan tez samara olish qam oson emas. Xattoki, bunday toifali insonlar «tiliga» xos jihatlari mavjudki, ular muloqat paytidagi qiyinchiliklar va ruxiy anglashilmovchiliklarni keltirib chiharadi.

3-dan, o'yin usullarini T-guruxlarda qo'llashda qam kutilgan natijaga erishish uchun milliy qadriyatlar, milliy ta'b va did xisobga olinishi zarur kattalar guruxida o'yinni tashkil etish uchun gurux ishtirokchilarini ko'proq psixodemotsional ko'rinishlariga imkon yaratish, bir-birlarini yanada yaxshi tanib olishlariga sharoitlar yaratish zarur. Chunki bizning xalqimiz begonalar oldida o'z xissiyotlarini yashirish, tortinchochlik, istixola kabi sifatlari borki, shu sababli odam sun'iy o'yin sharoitiga kunikish uchun ma'lum vaqt talab qilinadi.

4-dan, azaldan o'zbek oilasi va maxallalar faoliyatida ustivor bo'lган jihat shuki, ayollar va erkaklar aloqida etalonlar bilan tarbiyalanganlar va ko'п xollarda ular faoliyati aloqida-alоqida tashkil etilgan. Shuning ta'sirida bo'lsa kerak, T-guruxlarda jinslararo aralashuv ro'y berganda erkin fikrlash yoki harakatlar o'z-o'zidan cheklana boshlaydi. Shuning uchun munozara, baxs yoki rolli o'yinlar tashkil etishda qam jinsiy o'ziga xosliklar inobatga olinishi yoki o'yinchilarni maksimal tarzda faollik ko'rsatishlari maqsadida guruxlararo jinsiy bo'linishlarni qam xisobga olish darkor. Eksperimental kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, M: qizlar guruxi aloqida sharoitga quyilganda, bemalol, emotsiyonal jihatdan boy treninglar ko'rsatadilar, unda ular qam erkak, qam ayol, qam katta, qam kichik rollariga bemalol kira oladilar. Yigitlarning sof guruxida qam ikkala rolni uddalash xollari kuzatildi. Lekin aralash guruxlar sharoitidaa bunday samaraga erishish uchun ko'proq vaqt, psixologik maxorat va qaytarishlar talab qilinadi.

5-dan, maxalliy sharoitda shaxsning erkin o'z fikrini oxirigacha bayon etishga o'rgatish ma'lum qiyinchiliklar bilan ro'y beradi. Chunki xalq ongida o'zgalar fikri bilan xisoblashish «obro'li birovning» ishiga taqlid, o'qituvchi fikrini tanqidsiz qabul qilish an'analari mavjud. Bu jihat qam samarali treningni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga ko'pincha to'siq bo'ladi.

Shuning uchun qam O'zbekiston sharoitida ijtimoiy psixologik treningni tashkil etishga juda puxta tayyorgarlik ko'rish, guruxlarni shakllantirishda yosh, jins va mavqe'ga boqliq jihatlarni xisobga olish, mashqlantirishni ma'lum muddatga uzoqroq muddatli qilib tashkil etishga e'tibor berish zarur. Ayniqsa, bu o'rinda boshlovchi-trener shaxsiga beriladigan e'tibor katta.

Shu narsani yana xisobga olish lozimki, IPT lar meqnat jamoalaridagi ijtimoiy xodimlar- psixolog, sotsiolog va boshqalarning qam odatiy ishlaridan biriga

aylanishi, joylardagi mutaxassislarni psixologik korrektsiya qilishda treninglardan unumli foydalanish kerak.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yoshlar tarbiyasining eng dolzarb muammolari haqida xukumat raxbarimiz qam: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi, agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmassa, berilgan ta'lif samarasi past bo'lishi mukarrar» deb ta'kidlagan edi.(Karimov.I.A.- Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1997. 15- bet)

Bu vazifaning naqadar dolzarb ekanligi xech kimda shubxa uyqotmaydi, zero, erkin fikrlay oladigan kishigina jamiyatda o'z mavqeini to'la idrok qilgan qolda boshqalar bilan normal insoniy munosabatlarda bo'la oladi va unga bunda umumbashariy qamda milliy qadriyatlarimizning eng nodir namunalari, shuningdek o'zining shaxsiy tajribasi asos bo'ladi. Bilimdonlikning muxim qismi bo'lgan ijtimoiy-psixologik bilimdonlik, ya'ni insoniy, demokratik munosabatlar tizimidagi teranlik esa shaxs takdiri va saloxiyatini belgilovchi muxim omildir.

Amaliy ijtimoiy psixologiyada qayotimizning barcha jabqalariga faol kirib borayotgan ijtimoiy psixologik treninglar har bir shaxsning insonlar guruxida o'zini erkin sezishi va fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatuvchi usul sifatida istiqbolli usullardandir. Bayon etilgan nazariy qamda amaliy tahlillar balki bugungi jamiyatimizdagи insonlar o'rtasidagi barcha munosabatlarni o'z ichiga kamrab olmasada, Lekin bu ish yo'nalishidagi ishlarning debochasi-boshlanishi sifatida yangidan-yangi loyixalar va mashqulotlar variantlari uchun yo'l ochishi shubxasizdir.

Imonimiz komilki, kelajagi buyuk davlatimizda buyuk ajdodlarga munosib vorislar etishib chiqadilar va ular o'z madaniy saviyasi, ma'naviyati va axloqi bilan jaqon madaniyati taraqqiyotiga o'z ulushlarini qo'shadilar.

Tayanch iborlar: maxalliy va milliy o'ziga xoslik, IPT tashkil etishning xududiy va milliy jihatlari.

Nazorat savollar va topshiriklar:

IPT larni tashkil etishda maxalliy va milliy o'ziga xoslikni xisobga olish nima uchun zarurq

Xududiy va milliy jihatlarni xisobga olish deganda nimani tushunamizq

IPT dan ta'lif-tarbiya tizimida foydalanishning ahamiyatini asoslab beringq

IPT larni maxaliy sharoitlarda samarali qo'llash yuzasidaan takliflariningiz.

11 - MAVZU: BOSHHarISH PSIXOLOGIYaSI ASOSLARI

REJA:

- 1.Psixologiyada boshharish muammosi.
- 2.Guruxlarda raxbarlik va liderlik.
- 3.Boshharuv uslublari.
- 4.Raxbarlik sifatlari.

Boshharish psixologiyasi boshharuv faoliyati bilan boqliq bo'lgan

muammolarni, shaxs va shaxslar guruxi tomonidan boshqa guruxlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikda faoliyatni amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Boshharish psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda, asosiy diqqatni boshharish uning extiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi individual xususiyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshharuvning qaysi usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga haratadi.

Boshliq bo'lismga turli shaxslarning munosabatlari har xil: kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga, kimdir unga berilajak xuquqlarni, yana kimdir mas'uliyatni bo'yniga olishni ma'qul ko'radi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari xilma-xil bo'lsa qam, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruxini ongli maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lism, turli tadbirdirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lism, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi sifatlarning mujassam bo'lishi talab etiladi. Ayniqsa, boshliq uchun turli guruxlardagi, ko'p qolda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruxlardagi shaxslararo munosabatlarning harakteriga javobgar bo'lism qiyinchiliklar tuqdiradi, chunki guruxdagi har bir shaxsning individualligi, ularning boshharuvchi funksiyalari haqidagi tasavvurlarining har xilligi va guruxlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida qam tajribaning, qam psixologik faxm-farosatning va sabr-qanoatning bo'lismini talab qiladi. Shuning uchun, qam kundalik qayotimizdi, qam ilmiy adabiyotlarda tez-tez, yonma-yon ishlatalidigan «lider» va «boshliq» tushunchalarining psixologik mazmunlarini analiz qilib chiqamiz. B.R.Parigin bu 2 tushunchani farqlab shunday yozadi:

1.Lider, asosan, guruxdagi shaxslararo munosabatlarni boshharsa,raxbar shu guruxdagi

rasmiy munosabatlarni boshharadi.

2. Liderlik kichik guruxlargagina xos xodisa bo'lsa, raxbarlikning xaq-ququqlari katta

guruxlar doirasida qam sodir bo'lishi,amalga oshirilishi mumkin.

3. Agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, raxbarlik maqsadga haratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar natijasida sodir bo'ladigan xodisadir.

4. Liderlik raxbarlikka nisbatan vaqtinchalik xodisa bo'lib, gurux a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatları, faoliyat yo'nalişiga harab uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ruy beradi.

5. Raxbar liderda yo'q bo'lgan ragbatlantirish va jazolash tizimiga ega bo'lib, shu asosda xodimlariga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.

6. Lider guruxda harorlar, ko'rsatmalar, tashabbuslarni o'z ixtiyoricha, bevosita chiharishi mumkin, raxbarda esa ko'plab rasmiy ko'rsatmalar, rejalar, normalar, buyruklar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketish qiyin.

7. Liderning faoliyati kichik guruxlar doirasida amalga oshiriladi, raxbar shu guruxdagi, kengroq ijtimoiy doiradagi vakil bo'lgani uchun uning vaholatlari qam keng, imkoniyatlari qam ortikdir.

Lider xech qachon yolgiz bo'lmaydi, u gurux a'zolarini u yoki bu harakatga chorlaydi, gurux a'zolarining psixologiyasi, kayfiyatları, intilishlari, qiziqishlarini qammadan qam yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir.Turli xil liderlar mavjud:

Intellektual lider q gurux a'zolari ichida eng bilagoni, aql o'rgatuvchi, topkir.

Emotsional lider q gurux ichida eng xazilkash, dildiri, xushchakchak, kungil so'rovchi,

o'zgalarni tushuna oladigan.

Irodaviy lider qguruxni ish-faoliyatga chorlay oladigan, dadil,kat'iyatli,irodali. Ular vaziyat talabiga kura paydo bo'ladilar qamda bolalar ongida o'z sifatlariga kura obro' kozonadilar.Lider sifatlari yaxshi va yomon bo'lishi mumkin.Gurux liderga ergashganda, uni ibrat sifatida tanqidsiz qabul qiladi va barcha ishlariga ergashadi. Masalan: lider darsdan kochamiz desa, unga ergashganlar darsni tashlab ketadilar. Shuning uchun sinf raxbari sinfdagi rasmiy liderlar bilan birga, norasmiy liderlarni qam aniqlab, ular bilan qamkorlikda ishlashi zarur, o'qituvchining boshharish maxorati uning norasmiy liderlar bilan ishlash usulidir.

har qanday lider obro'ga ega. Obro'lilik shaxsning shunday xususiyatidirki, u boshqa shaxslarga qam emotsiyal, qam irodaviy ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ega. Norasmiy obro'lilik, ya'ni shaxslararo munosabatlar orqali orttirilgan obro' eng samaralidir.

har bir lider yoki boshliq o'zicha individual (qaytarilmasdir). har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshharuv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etadi. Ijtimoiy psixologiyada boshharuv uslublari muammosi batafsil o'rganilgan. Asosan, boshharuv uslublari 3 xil:

Avtoritar.

Demokratik.

Liberal.

Avtoritar raxbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruxida, aniq, ravshan, keskin oxangda xodimlariga etkazadi. Muloqot jarayonida qam xodimlarga duk-pupisa, keskin ta'kiklash kabi kat'iy oxanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri nima bilan bo'lsa-da, o'z xukmini o'tkazish. Uning nutqi qam aniq va ravon, doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarini maktash yoki ularga jazo berish, tanqid qilishi sof sub'ektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga boqliq. Jamoa a'zolarining tilak-istiklari, fikrlari, maslaxatlari juda kam xolatlardagina inobatga olinadi, ko'pincha bunday istaklar yoki maslaxatlar to'g'ri dan to'g'ri duk-pupisa, kamsitish, ma'naviy jazolash yo'li bilan cheklanadi. Bunday raxbar kelajak rejalari, biror ishni qanday amalga oshirmokchi ekanini jamoadan sir to'tadi, uning fikricha, agar ularga aytaversa, obro'yiga salbiy ta'sir etadi. Xullas, u jamoadagi munosabatlardagi o'rni jihatidan «chetda», avtonom.

har bir xodimning qobiliyatni, ishga munosabati haqida o'zining tasavvuri bor, shunga kura munosabatda bo'ladi. O'z ishiga fidoyi, jon dili bilan ishga kirishadi, tabiiyki, ish yuzasidan topshiriklar o'z vaqtida bajariladi. «temir raxbar». U raxbar bo'lgan jamoada o'zini qam, boshqalarni qam tanqid qilishlariga yo'l kuymaydi. Uning fikricha, tanqid qilishga faqat boshliq xaqli. Yigilishlarda so'zni o'zi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari,

xissiyotlari e'tiborga olinmaydi.

G. Gibsh va F. Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh bo'lgan ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo'lib, ko'rsatkichlar qam yuqori bo'lar ekan. Lekin jamoadagi ruxiy-ma'naviy muxit oqir, tang bo'lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan konikmasliklariga olib keladi, bunday raxbar etakchi bo'lgan korxonalardagi ishchilar o'z ish joylarini osonlik bilan almashtirishlari mumkin.

Demokratik raxbar, aksincha, o'z qo'l ostidagilarga mustaqillik, erk berish tarafdori. Ishda topshiriklar berganda ishchilarning qobiliyatini xisobga oladi, shaxsiy moyilliklarni qam xisobga oladi. Buyruk yoki topshiriklar taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda urtoklarcha dustona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maktash, lavozimini oshirish, kamchiligiga baqo berish (ishdagi) doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishgan qolda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha, taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baqo berish xolida «aybdor»ga etkaziladi. har bir yangi ish jamoa maslaxatisiz boshlanmaydi. Bunday boshliqning fazoviy ijtimoiy xolati «jamoa ichida». Jamoada tanqid, o'z-o'zini tanqid shunday yo'lga kuyilganki, uning okibatida xech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko'proq boshliq emas, jamoaning boshqa faollariqnorasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'l qo'yan xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida buyniga olishdan kurkmaydi. Chunki undagi mas'uliyat xissi nafakat yuqori boshharuv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki xodimlar bilan muloqot paytida qam sezilib turadi va kuyilgan topshirik yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga qam bo'lib berishni yaxshi kuradi. Boshliqning xodimlaridan siri yo'q, shuning uchun qam majlislarda ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi harorni chiharish va so'zlarni yakunlash, umumlashtirish xuko'qidan u to'liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning analizlariga kura, bunday boshliq raxbarlik qilgan jamoalarda ma'naviy-ruxiy muxit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan konikish xosil qilganlar, ishdan ketish xoldlari kam-u, Lekin ishlab chiharish zurga norma xolatida bo'lar ekan.

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan raxbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mammun yoki mammun emasligini bilish qiyin. Unda ta'kiklash, pupisa bo'lmaydi, uning o'rniga, ko'pincha, ishning oxirgi okibati bilan tanishish bilan chekshanadi, xolos.Jamoada qamkorlik yo'q, boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, guyoki boshqa «koinot»da yurganga uxshaydi.Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali lozim bo'lgan topshiriklar bajaruvchilarga etkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, keraqli maxsulot, xom ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va x.k.lardan iborat. Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomala bo'lib, odob-axloq normalarini bo'zmaslikka harakat qiladi, Lekin xech qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiharsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi so'zni o'ziga koldiradi.Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va xatti-harakat erkinligi berib kuyilgan.O'sha erkin harakatlar yuzasidan boshliqning fikri suralgan takdirda qam undan aniq gap chiqmaydi,

chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan kurkadi. Uning fazoviy psixologik xolati «gurux tashkarisida».

Olimlar fikricha, bunday raxbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, kunim qam yo'q. Liberal raxbar ishda anarxiyani qilib kuyib, ko'p turmay, boshqa erdan ish kidirishga harakat qiladi.

Yuqorida baqo berilgan boshharish usslublari ko'proq liderlikka emas, balki raxbarlikka taallukli, Lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora ko'pincha sinonimday qo'llanadi. Aslida eng yaxshi raxbar o'zida barcha liderlik sifatlarini qam mujassamlashtirgan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy psixologik ma'nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga kura tabakalanadi. M: lider-tashkilotchi, lider-tashabbuskor, lider-erudit, jamoa xissiy-emotsional xolatini boshharuvchi lider, lider bilagon va x.k. Yaxshi raxbar ana shu lider sifatlarini bilgan qolda, ularni o'zida tarbiyalashi va jamoadagi liderlar bilan qamkorlikda ishlay olishi kerak.

Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida qayotda sof demokrat yoki sof avtoritar raxbarni uchratish qiyin, Lekin uchragan paytda qam ular bir jamoani uzoq muddat boshhara olmasliklari ma'lum bo'ldi. Shuning uchun qam ular vaziyatga boqliq, vaziyat,konkretna jamoa, unda qabul qilingan xatti-harakat normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning qam, raxbarning qam ish taknikasi va uslubini belgilaydi, degan qoya qabul qilinmokda. Lekin bu raxbarlik usslublarini psixologik mazmun va moxiyatini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor, moxir raxbar o'zini-o'zi tarbiyalar ekan, o'shalarning eng ma'quli, ayniqla, o'zi raxbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofikdir.

Raxbarlik sifatlari.

Yuqorida aytib utilganidek, raxbarda tugma qobiliyat bo'ladi deb qam aytib bo'lmaydi, ikkinchi tomondan, raxbar vaziyatga harab, stixiyali tarzda tarbiyalanib ketaveradi deb qam bo'lmaydi. Minglab shaxs sifatlari ichida ko'plari raxbarlik uchun kulay va ma'quldir.A.V.Petrovskiy ana shunday ijobiy sifatlardan 1,5 mingini sanab chiqkan. Lekin ularning barchasini umumlashtiradigan, albatta, bo'lishi lozim bo'lgan ayrim sifat qobiliyatlar borki,,o'shalar haqida qisqacha tuxtalib utmok lozim.

Avvalo har qanday raxbarda qintellect, aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi lozim. Bu norma yaxshi raxbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmoqi maqsadga muvofikdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan raxbar bilan ishslash xodimlar uchun qator nokulayliklarni keltirib chiharishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik tusik bo'lishini amaliyat va qayot ko'rsatdi.

TAYaNCh IBORALAR:Boshharish psixologiyasi, raxbarlik, liderlik, avtoritar, liberal,

demokratik, raxbarlik sifatlari.

Nazorat savollari va topshiriklar:

1.Boshharish psixologiyasi nimani o'rganadiq

2. «Raxbar» va «lider» tushunchalarini psixologik tahlil eting.
3. qanday raxbarlik uslublarini bilasizq Ularning afzal tomonlarini ko'rsating.
Javoblarizingizni asoslang.
4. quyidagi manbalardan konspekt oling:
 - a) E.Goziev. Raxbar faoliyatidagi nuksnlarni bartaraf etish. Xalq ta'limi jurnalı.2000 yil.3-son.
 - b) E.Goziev. Zamonaviy raxbar kiyofasi.Xalq ta'limi jurnalı.2000 y.2-son.

Ijtimoiy psixologik treninglar uchun stsenariylar va munozaralar uchun ayrim mavzular.

1. Boshlovchi har bir ishtirokchi qo'liga aloqida kartochkalardan «Lider» va «Farosat» so'zlarini berib chiqadi. So'zlardagi harflar vertikal ko'rinishida yozilgan bo'lib, ishtirokchi har bir harfni ro'parasiga o'sha bilan boshlanadigan o'zidagi shaxsiy sifatlarni ko'p o'ylamay yozib chiqishi kerak.
Maqsad: shaxsning o'zini o'zi anglash va o'ziga nisbatan senzitivlikni aniqlash.
2. «Sud yiqilishi». Unda quyidagi rollar bo'ladi: Sudya, advokat, jamoatchilik vakili, er, xotin, qaynona, qaynota. Vaziyat: Er-xotinning ko'proq jamoat ishlaridan bandligidan norozi. Uningcha, xotin uy ishlarini bajarishi, konkret vaziyatda u yo ishni, yoki oilani tanlashi kerak.
Maqsad: Rolli o'yin vositasida ziddiyatli sharoitlarda shaxslar aro o'zaro murosa yo'llarini kidirish.

3. Axvollar kalayq o'yini. Bunda gurux a'zolari juftliklarga bo'linib, doira shaklida joylashadilar va ichkari tomonda to'rganlar tashkaridagilarga 30 sekund mobaynida o'z qayotlari haqida gapira boshlaydilar. Unda oxirgi paytda qayotda yuz bergen vokea, faxrlanish ob'ektlari, shirin taassurotlar haqida gapirish mumkin. 30 sekunddan keyin rollar almashinadi.

O'yin gapirish va tinglash malakalarini, o'zi haqida gapira olish san'atini, lunda va qisqa gapirish kabi qator sifatlarni tarbiyalaydi.

4. Kosmik tezlik o'yini. Asosiy kuro - tupcha. Koptokni T-gurux a'zolari doira shaklida turib tez-tez bir - birlariga o'zatishlari kerak, Lekin uni yonidagiga berib bo'lmaydi. Agar qisqa muddatda har bir gurux a'zosi kamida bir marta bexato tupni kulga kiritgan bo'lsa, o'sha gurux golib xisoblanadi. Bunda guruxdagi harakatlar muvofiqligi, psixologik moslik, harakatlarining birligi, tez va to'g'ri haror chihara olish kabilalar sinaladi.

5. Botkoklik o'yini. Buning uchun karton kogozidan tayyorlangan o'rtacha kattalikdagi «likopchalar» kerak bo'ladi, ularning soni 9 ta bo'lgani ma'qul. Gurux a'zolari qator bo'lib, birin - ketin «tarelkalarni» bosib botkoklikdan o'ta boshlaydilar, atrofda esa, karoqchi, «timsoxlar» bor. Ular bo'shab qolgan tarelkalarni olib kuyadilar. Maqsad - har bir gurux a'zosi tarelkalardan oyogini o'zmasligi, xech bo'limganda bir oyokni uchi bilan ularni bosishi kerak. Agar gurux a'zolari ittifok bo'lib, ular harakatlarida muvofiqlik yuzaga kelsa, albatta botkoklikdan maglubiyatsiz o'tadilar va birorta likopchani timsoxlarga bermaydilar.

6. Telefon o'yini. Gurux a'zolari navbat bilan telefonda o'zi tanlagan abonent bilan 30 sekund o'zi xoxlagan mavzuda gapplashadi. Kuzatuvchilar o'zini tutishi, klient bilan muomalasi, narigi tarafdag'i shaxs bilan gaplashuvchi o'rtasidagi yaqinlik, o'zaro munosabatlarni tahlil qiladilar va keraqli maslaxatlar beradilar.

7. Intervyu o'yini. Boshlovchi va protagonist interver sifatida turli toifali shaxslardan (vazir, artist, rektor, maktab direktori va x.k) intervyu olinishi aytildi. U o'zi bir a'zoni shu rolga tavsiya etadi. Tahlilda nima uchun aynan shu kishi shu rolga tavsiya etilgani haqida qam fikr bildiradi. «O'zga bo'lish san'ati» va oliy darajali muloqot texnikasi mashk qilinadi.

8. Xushomad qilish o'yini. Gurux a'zolari bir - birlariga xushomad qila boshlaydilar. Maqsad: guruxdagi shaxslararo tanglikni bartaraf etish va psixoemotsional engillik berish

9. Omma oldida chiqish qilish. Bu o'yinga a'zolar oldindan tayyorgarlik ko'rishgani ma'qul. Chunki bunda ma'lum vaqt davomida notiklik maxorati va guruxga murojaat qilishning turli vositalari sinaladi va gapirish, eshitish san'atlari mashk qilinadi.

10. Breystorming uchun quyidagi mavzularni taklif qilish mumkin:

Yomon raxbar - bu

Yaxshi (yomon) ma'ruza bu -

Men loqaydlik qilsam

XXI asr yoshlari qanday bo'ladiq

Boshqa planetalardagi tirik mavjudotlar

11. 2 minut vaqt ichida turli mavzularda ommaviy ma'ruzalar matnini tayyorlash yoki qoralash. Mavzular - «Yoshlar muammosi» «O'zbek ayollari masalasi»

«Raqbarlik mansabmi yoki talantmi» «qishloq turmush tarzi» va x.k.

12. «Uchrashuv mavzusida» rolli o'yinlar. Bir xolatda tanish odamlar, ikkinchi xolatda notanish odamlar uchrashib qoladilar. Trening ishtirokchilari «Uchrashuv» qatnashchilarining o'zaro muloqoti, o'zini tutishlarini turli vaziyatlarda sinab, so'ngra muxokama qiladilar.

13. «Tanishuv» Turli yosh, jins, kasb- kordagi shaxslarning tanishuvchi saxnalari turli variantlarda uynaladi.

14. «O'zini tanishtirish» o'yini. 2 minutda har bir ishtirokchi o'zi haqida xoxlagan narsalarni aytib berishi va so'ngra aytiganlar video yoki audiokassetalar vositasida qaytarilib, shaxsning o'zi va gurux tomonidan tahlil qilinadi.

15. Salomlashish. Trener gurux a'zolarini doira qilib o'tkazib, so'ng ularni har biri 2 yoki 3 kishidan iborat guruxlarga ajratadi.

16. Tuqilgan kungasovqa. Trening a'zolaridan biri gurux oldiga chiqib o'tiradi. O'yinning qamma ishtirokchilarining vazifasi, o'tirgan kishining tuqilgan kuniga individual tarzda sovqa qilish. «Sovqa berish» tugaganidan so'ng, nima uchun aynan shu sovga qilinganligini asoslab berish kerak. Mashkning ma'nosi: «Atrofingdagilar nechoqlik seni turli-tuman, turligicha yoqtiradilar va idrok etadilar». Guruxning har bir a'zosi, trenerning o'zi qam «Imeninnik» rolini bajarishi mumkin. Bu erda trenerning vazifasi – o'z-o'zini boshharish muammosiga ko'proq e'tibor berish.

17. Tanishish. Trenerning ko'rsatmasiga binoan uning o'ng yoki chap tomonida turgan ishtirokchilardan bittasi o'z ismini aytadi. Ikkinci ishtirokchi esa birinchisining va o'zining ismini aytadi. Trenerning uchinchi ishtirokchisi esa, birinchisining, ikkinchisining va o'zining ismini aytadi va shu tariqa oxirigacha davom etadi. Trenerning oxirgi ishtirokchisi birinchisidan boshlab, to gurux a'zolarining qammasining va o'zining ismini aytadi. Gurux a'zolarining bir-birlari bilan tanishishi mana shu tarzda amalga oshadi.

Agar gurux a'zolari tanish bo'lalar, 2-turda har bir ishtirokchi o'ziga «taxallus» (gul, meva, badiiy kaxramon, planetalar nomi kabi) o'ylab topib, keyin o'sha «taxallus» bo'yicha o'zini tanishtiradi.

Bu mashq qam shaxslararo chinikish, xotirani mustaqkamlash, emotsional tanglikning oldini olish kabi maqsadlarda xizmat qilishi mumkin.

18. Inkor etilganlar o'yini. Munozara yoki breynstorming usuli yordamida jamiyatda inkor etilganlar toifasiga kiruvchilar va ularning paydo bo'lish omillari qamda shundaylarga yordam choralar haqida fikr almashinadi. Ma'lum muddat utgach, guruxning o'zida ayrim belgilarni asosida a'zolar toifalarga bo'linib, trener boshchiligidagi tabiiy eksperiment yo'li bilan «inkor etilganlikni xis qilish o'yini» tashkil etilishi mumkin.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch" T.,2008y.

Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barharorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent. 1997 y.

Karimov I.A. «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshkengt. 1997 y.

- Karimova V.M. «Ijtimoiy psixologiya asoslari» Toshkent. Uz. 1994 y.
- Karimova V.M. «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» Toshkent. Universitet. 1999 y.
- Agoronyan A.S. «Kultura povsednevnay jizni. Sotsialno-prakticheskie aspekto`» Toshkent. O'zbyokistoon. 1982 y.
- Aniqeeva «Jamoadagi ruxiy muxit» Toshkent. Uz. 1992 y.
- Gozman «Psixologiya emotsiyalno`x otnosheniy» M: Izd MGU –1987.
- Dobrovich A.B. «Vospitatelu o psixologii i psixogigiene obqeniya» Kn. dlya uchiteley i rukovoditeley M.Prosv-1978.
- Jutikova N.B «Psixologicheskie uroki obo`dennoy jizni» Besedo` psixologa. M. Prosv-1990.
- Kovalyov S.V «Psixologiya sovremennoy semi» Kn. dlya uchitelya M. Prosv-1988.
- Kon I.S. «Psixologiya ranney yunosti» Kn. dlya uchitelya M. Prosv-1989.
- Kronin A.A. Kronina E.A. «V glavno`x rolyax: vo`, mo`, on, to`, ya» Psixologiya znachimo`x otnosheniy. M. Mo'sl 1989.
- Nochevnik. «Kultura i etika obqeniya» T.1983.
- Petrovskaya A.A. «Kompetentnost v obqenii. Sotsialno-psixologicheskiy trening» M. Izd. MGU 1989.
- Turaeva O. «Oilaviy munosabatlar psixologiyasi» Toshkent. 1990 y.
- Elkonin D.B. «Psixologiya igro`» M. 1978.
- E. Goziev va b. «Psixologiya muammolari» Toshkent. 1999 y.
- E.Goziev «Zamonaviy raxbar kiyofasi» X.T 2000 y 2-son.
- E.Goziev «Raxbar faoliyatidagi nuksonlarni bartaraf etish» X.T. 2000 y 3-son.
- Abduraxmonov F. Davletshin M.G. «Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak» Toshkent.1996 y.
- Turgunov «Psixologiyadan izoxli lugat» Toshkent. 1998 y.
- Samarov R. «Oilani etnopsixologik o'rghanishga yana bir uslubiy yondoshish» X.T. 1998 y 1-son.
- Soginov N.A. Xabibullaev F.R. «O'quvchilar o'rtasida shaxslararo munosabatlarni o'rghanish» Toshkent. 1998 y.
- E.Goziev «Universitetlarda psixologiya o'qitishni takomillashtirish» Toshkent. 1992 y.